

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI
"PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA" KAFEDRASI

**"4-sinf "O'qish" darslarida nostandard dars shakllaridan
foydalanish" mavzusidagi**

B I T I R U V M A L A K A V I Y I S H I

Bajardi: "Boshlang'ich ta'lism va
sport tarbiyaviy ish" ta'lism yo'nalishi
bitiruvchi 4-kurs talabasi
Xoliqulova Feruza Aliboy qizi

ILMIY RAHBAR:

O'qituvchi Ismailov M.

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.

sonli bayonnomasi "_____" 2018 yil

TERMIZ – 2018

MUNDARIJA

KIRISH.....
I BOB. BOSHLANG`ICH SINFLARDA O`QISH DARSLARINI TASHKIL ETISHNING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI
 1.1. Boshlang'ich sinf o`qish darslarining maqsad va vazifalari, ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati.....
 1.2. Boshlang'ich sinf o`qish darslarida qo`llanadigan metod va usullar mazmuni.....
 1.3. Ta'lim jarayonining maqsadiga ko`ra o'quvchilarning o'quv faoliyatini tashkil qilish shakllari.....
 I-bob bo'yicha xulosa.....
II BOB. 4-SINF O`QISH DARSLARIDA NOSTANDART DARS SHAKLLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI.....
 2.1. Nostandard dars shakllari va ularning mazmuni
 2.2. Nostandard dars shakllari asosida o`qish darslarini tashkil qilish metodikasi.....
 2.3. Nostandard dars shakllari asosida tashkil qilingan o`qish darslari va ularning tahlili
 Umumiy xulosa va tavsiyalar.....
 Foydalilanilgan adabiyotlar ro`yxati.....

KIRISH

Mavzuning dolzarbliji. Yangi asr o`qituvchisini tayyorlashda uning pedagogik-psixologik va intellektual salohiyat bo`yicha chuqur bilimga egaligi, innovatsion ta'lif berish, innovatsion ta'lif texnologiyalari, ta'limning interfaol usullari va ilg`or samarali metodlariga oid ijodiy faollikni oshirishning samarali usullaridan xabardor bo`lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonning mustaqillikka erishganligi va hozirgi kunda Respublikamizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy o'zgarishlar jamiyatimiz ijtimoy hayotida tub burilish boshlab berdi va ular o'zbek xalqining bundan keyingi taqdirini belgilab berishda muhim rol o'yndaydi.

Endilikda barcha sohani mamlakatimizning milliy ehtiyoj va manfaatlaridan kelib chiqib, avlod-ajdodlarimizning azaliy turmush tarzi, an'analari, urf-odatlari hamda tarixiy tajribalarini hisobga olgan holda rivojlantirish muhim dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu esa milliy davlat sifatida ijtimoiy - siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-madaniy normal topshiruvchi o'z taraqqiyot yo'llini rivojlantirish milliy istiqlol mafkurasini qaror toptirish va uni barcha xalq ommasi onggiga singdirish zaruriyatini taqazo etadi. Bu bilan nafaqat hozirgi avlod taqdiri balki, keljak avlodning ham shunga bog'liq ekanligini anglatadi. Birinchi Prezidentimiz I.Karimov o'zining «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida "...farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo`lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta'lif-tarbiya sohasining asosiy maqsad va vazifasi bo`lishi lozim," deb ta'kidlagan¹.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lif to'g'risida»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida ta'lifning maqsadi, vazifalari, mazmuni, shakli, vositalari hamda tamoyillarining tanlanishi birinchi darajali ehtiyojga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan «Davlat ta'lif standarti to'g'risidagi Nizom»ga binoan

¹ I.A.Karimov. "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – b.-61.

umumiyl o'rta ta'limga, shu jumladan, boshlang'ich ta'lim bosqichi uchun ham alohida-alohida davlat ta'lim standarti talablari va me'yoriy ko'rsatkichlari belgilab qo'yildi.

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonunda ta'kidlanganidek: «Maktabning birinchi sinfiga bolalar olti-yetti yoshdan qabul qilinadi. «Boshlang'ich ta'lim konsepsiysi»da e'tirof etilganidek, olti yoshga to'lgan har qanday bola aqliy, ruhiy hamda jismoniy jihatdan maktabda o'qish uchun tayyor bo'lganda maktabning moddiy texnik-bazasi bunday bolalarga ta'lim berish uchun yetarli deb hisoblanganda hamda o'qituvchilar pedagogik va psixologik jihatdan olti yoshli bolalarning o'qitishga tayyor bo'lganda ularni maktabga qabul qilish mumkin. Buning uchun olti-yetti yoshli bolalar, maktabning moddiy-texnik bazasi hamda o'qituvchilar pedagogik va psixologik talablar asosida qat'iy diagnostika qilinishi shart.

«O'zbekiston Respublikasida umumiyl o'rta ta'lim to'g'risida»gi Nizomda ta'kidlanganidek: «Boshlang'ich ta'lim o'qish, yozish, sanash, o'quv faoliyatining asosiy malaka va ko'nikmalari, ijodiy fikrlash xislatlari, o'zini-o'zi nazorat qilish uquvi, nutq va xulq-atvor madaniyati, shaxsiy gigiyena va sog'lom turmush tarzi asoslari egallab olinishini ta'minlashga da'vat etilgan». Shu asosga ko'ra, boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning umummadaniy va axloqiy ko'nikmalari, dastlabki savodxonlik malakalari shakllantirilishi lozim. Boshlang'ich ta'lim jarayoni bolaning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyatini, aqliy rivojlanishini, dunyoqarashini, kommunikativ savodxonligini va o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllantirishga, jismonan sog'lom bo'lishga, moddiy borliq go'zalliklarini his eta olishga, go'zallik va nafosatdan zavqlana olishga, milliy urf-odatlarni o'ziga singdirishga va ardoqlashga, ularga rioya qilishga o'rgatadi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi oldiga qo'yilgan vazifalarning bajarilishini nazorat qilish ta'lim standarti orqali amalga oshiriladi. Ta'lim standarti asosida davlat boshlang'ich sinf o'quvchilaridan standartda

belgilab qo'yilgan minimal ko'rsatkichlarga erishishni talab qiladi va o'z navbatida bu ko'rsatkichlarga erishish uchun zarur bo'lgan ta'limiy xizmatlar va vositalar bilan ta'minlaydi.

Ma'lumki, har qanday jamiyatning kelajagi yosh avlodning qanday ta'lim olishiga va qay tarzda tarbiyalanishiga bog'liq. Ana shunday avlodgina mamlakat oldida turgan umum davlat amaliyotiga molik vazifalarni bajarishga qodir bo'lib, o'z xalqining tarixiy taqdirini belgilab bera oladi. Shunga ko'ra yosh avlodni ma'naviy - axloqiy barkamol inson qilib tarbiyalash davlatimiz oldidagi turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki, faqat ma'naviy barkamol, erkin va ozod insongina kuchli bilim va tafakkur orqali har bir soxada to'la muvaffaqiyat qozona olishi mumkin.

Boshlang'ich ta'lim umumiyligi o'rta ta'limning poydevori hisoblanadi. Shu bois mamlakatimizda boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishga alohida e'tibor berilmoqda. O'qituvchilar darsda ilg'or pedagogik texnologiyalar va o'qitishning interfaol usullaridan keng foydalanmoqda. Har bir ta'lim muassasasida boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun qiziqarli o'quv-metodik adabiyotlar, jumladan, elektron resurslarning katta zaxirasi mavjud. Sifatli ta'limiy faoliyatni multimedia materiallari orqali tashkil etish an'anaviy uslublarga nisbatan afzalligini o'qituvchilar anglab yetdi. Noan'anaviy dars olib borish natijasida o'quvchilarning fikrlash qobiliyati o'sadi; bir vaqtning o'zida ham ko'radi, ham eshitadi; o'quvchilarga ko'proq bilim beriladi; darslarning samaradorligi oshadi; boshlang'ich sinf o'quvchilarining kompyuter savodxonligi shakllanadi; darslarda toliqib qolmasligi uchun didaktik materiallarni animatsiyalar orqali ko'rsatish imkoniyati mavjud; o'rganilayotgan materiallarni kichik lavhalarga ajratgan holda yoki qayta namoyish etish mumkin.

Odatda, o'qituvchining o'quvchilarga bir xil qolipda dars o'tishi an'anaga aylangan. Endilikda esa o'quvchilarga mustaqil topshiriq berish, darsga mustaqil tayyorgarlik ko'rib kelish, berilgan mavzu yuzasidan erkin fikr bildirishi zamонавији усуlda dars o'tishning asosidir. Noan'anaviy усуlda

dars o'tishda «Biz o'quvchilar bilan yakka tartibda yoki guruhlarga bo'lib dars o'tishimiz mumkin. Bunda har bir o'quvchi bilan yakka tartibda ishslashga imkoniyat bo'ladi.

Bolaning ongi asosan 5-7 yoshda shakllanishini inobatga oladigan bo'lsak, aynan ana shu davrda uning qalbida oiladagi muhit ta'sirida ma'naviyatning ilk kurtaklari namoyon bo'la boshlaydi.²

Boshlang'ich sinflarga dars o'tishda asosan o'yin usullaridan, interfaol metodlardan, modulli texnologiyalardan, noan'anaviy dars shakllaridan, fanlararo integratsiyadan foydalanish mumkin. Bu metodlarning hammasi ham bolalarda mustaqil ishslashni, o'z fikrini erkin bayon qila olishni, keng fikrlashni talab etadi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy salohiyati va ma'lumot darajasi, zamonaviy ta'lim metodikasini bilishi ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Afsuski, ayrim o'qituvchilar hali ham dars jarayonida an'anaviy o'qitish tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va multimedia vositalaridan, ta'lim tizimiga oid saytlarda berilgan metodik tavsiyalardan yetarlicha foydalanmayapti. Shu bois, hozirda o'qitish jarayonida qo'llaniladigan ta'lim metodlari va vositalari, o'qitish jarayonini tashkil etishning zamonaviy shakllarini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shundan kelib chiqib, biz bitiruv malakaviy ish mavzusini **“4-sinf o'qish darslarida nostandard dars shakllaridan foydalanish”** deb nomladik.

Mavzuning o'rganiqlanlik darjasи. Ta'lim jarayonini tashkil etish shakllarining rivojlanish tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, XVII asrda Yan Amos Komenskiy tomonidan «Buyuk didaktika» asarida nazariy jihatdan asoslab berilgan va ommaviylashtirilgan bo'lsa, Komenskiy g'oyalari mashhur rus pedagogi K.D.Ushinskiy tomonidan yanada rivojlantiriladi.

M.Mirzaolimova³ o'qish darslarida badiiy matnlardan foydalanish va ular ustida ishslash masalasiga to'xtalgan bo'lsa, professor Asqar Zunnunov o`qitishning

² I.A.Karimov . “Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch”, Toshkent., 2008 yil., 2-sahifa.

³ Mirzaolimova M. O'qish darsida badiiy matnlar ustida ishslash tajribasidan.T. 2010-yil.,

mazmuni va usullari haqida fikr yuritib, o`quvchilarning oldin bilimlarni o`zlashtirishiga, so`ng yod olishlariga e'tibor berilishi ta'lim jarayonida izohli o`qish deb nomlanganini ta'kidlaydi.

Atoqli metodist olim N.I.Kudryashov o`quvchilarda ijodiy yondashishning rivojlanishi o`qituvchi bilan olib boriladigan hamkorlikdagi ish shakllariga hamda o`quv jarayonini tashkil etishda qo'llaniladigan usullar rangbarangligiga bog'liqligini ta'kidlaydi.

Psixolog T. G. Egorov⁴ o`zining «Ocherki psixologii obucheniya detey chteniyu» nomli asarida o`qish malakalarini shakllantirish jarayonini uch bosqichga ajratadi: *analitik bosqich, sintetik bosqich va avtomatlashgan bosqich.*

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi. Boshlang`ich ta'lim 4-sinf o`qish darslari samaradorligini oshirishda nostandard dars shakllaridan foydalanish, uning didaktik mohiyati va foydalanish shart-sharoitlarini asoslab berish.

Bitiruv malakaviy ishning obyekti. 4-sinf o`qish darslarida nostandard dars shakllaridan foydalanish jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti. 4-sinf o`qish darslarida nostandard dars shakllaridan foydalanish orqali o`quvchilarning o`quv-biluv faoliyati samaradorligini oshirish vositalari, shakllari va metodlari.

Bitiruv malakaviy ishning mavzusidan kelib chiqib quyidagi **vazifalar** belgilab olindi:

- muammoning nazariya va amaliyotdagi holatini o`rganish asosida o`qish darlarida nostandard ta'lim shakllaridan foydalanish dolzarb muammo ekanligini asoslash;
- ilmiy-ommabop nashrlarda, pedagogik adabiyotlarda hamda internet saytlarida yoritilgan mavzuga doir ma'lumotlarni o`rganish;
- o`qish darslarini tashkil etishga doir talablarni, maqsad va vazifalarini o`rganish;

⁴ Egorov T.G. Ocherki psixologii obucheniya detey chteniyu. – M.: VLADOST, 2002

- nostandard dars shakllari, ularning mazmun-mohiyati haqida nazariy ma'lumotlar yig'ish va tahlil qilish;
- boshlang'ich sinf o'qish darslarida nostandard ta'lim shakllaridan foydalanish imkoniyatlarini olib berish;
- o'qish darslarida nostandard dars shakllaridan foydalanishga doir tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy-tadqiqot metodlari.

- nazariy-qiyosiy tahlil;
- pedagogik kuzatish;
- pedagogik tajriba;
- savol-javob;
- suhbat;
- muassasa ish hujjatlarini o'rganish va tahlil qilish.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asoslari. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», Respublika Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlari, Xalq ta'limi vazirligining me'yoriy hujjatlari, “Boshlang'ich ta'lim kontsepsiysi”, Sharq mutafakkirlarining qarashlari, pedagog-psixolog olimlarning tadqiqotlari hamda pedagogik manbalarda ilgari surilgan g'oyalar tadqiqot samaradorligini ta'minlash uchun muhim asos bo'lib xizmat qildi.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy farazi. Agar,

- boshlang'ich sinf o'qish darslarida nostandard ta'lim shakllaridan foydalanilsa;
- ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi-o'quvchi hamkorligi samarali olib borilsa;
- o'qish darslarida nostandard ta'lim shakllaridan foydalanish muayyan ilmiy-pedagogik tavsiyalarga tayangan holda tashkil etilsa o'quvchilarining ta'limdagи faolligi hamda o'qishga nisbatan qiziqishi oshadi.

Bitiruv malakaviy ishning nazariy ahamiyati. Boshlang'ich sinf o'qish darslarining asosiy maqsad va vazifalari metodik jihatdan yoritib berildi; nostandard dars shakllari, ularning mazmuni hamda nostandard ta'lim

shakllaridan dars jarayonida foydalanishga doir ilmiy-nazariy ma'lumotlar to'plangan va tahlil qilingan.

Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda ishda keltirilgan ilmiy-nazariy ma'lumotlar va tavsiyalardan amaliy foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning tuzulishi. kirish, 2 bob, 6 ta paragraf, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va ilovalardan iborat.

I BOB. BOSHLANG`ICH SINF O`QISH DARSLARINING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, METODIKASI VA USULLARI

1.1. Boshlang`ich sinf o`qish darslarining maqsad va vazifalari, ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati

Boshlang`ich sinflarning o`qish darslari o`z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko`ra ta`lim tizimida alohida o`rin tutadi. Negaki uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta`limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa fanlar ta`limini o`qish ta`limisiz tasavvur qilib bo`lmaydi. o`quvchi matnni to`g`ri, tez, tushunib o`qish, mazmunini o`zlashtirish bilan ilk bor o`qish darslarida yuzlashadi.

O`qish darslari orqali o`quvchilarning Davlat ta`lim standartlari (DTS) talablari bo`yicha o`zlashtirishlari ko`zda tutilgan o`quv-biluv ko`nikma-malakalari hamda bilimlarni egallashlariga yo`l ochiladi. Aynan o`qish ta`limida insonning, avvalo, o`zligini, qolaversa olamni anglashga bo`lgan intilishlariga turtki beriladi.

Shu maqsadda «O`qish kitobi» darsliklariga ona tabiat, atrofimizni o`rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqlol va milliy-ma'naviy qadriyatlar, xalqlar do`stligi va tinchlik kabi turli mavzular bo`yicha atroflicha tushunchalar berishga mo`ljallangan badiiy, axloqiy-ta`limiy, ilmiy-ommabop asarlar kiritiladi.

O`qish darslari savod o`rgatish davrida o`quvchilarni bo`g`in, so`z va gaplar bilan tanishtirish va ularni o`qish, rasmlar asosida hikoya qilish tarzida uyushtirilsa, o`qish texnikasi egallangandan so`ng o`qish muayyan mavzular bo`yicha tanlangan badiiy, ilmiy-ommabop matnlar yuzasidan olib boriladi.

Boshlang`ich ta`lim bo`yicha DTS va «Ona tili» o`quv dasturida o`qish ta`limi oldiga qo`yilgan talablarni amalga oshirish sinfda o`qishni to`g`ri tashkil qilish, o`qitish bosqichlari, tamoyillari va metodlari, birinchi navbatda, ilg`or pedagogik texnologiyalardan o`rinli foydalanishga ko`p jihatdan bog`liqdir.

Ma'lumki, sinfda o`qish asosida badiiy va ilmiy-ommabop matnlar turadi. O`quvchilarni matn bilan tanishtirish o`qishga tayyorgarlik bosqichidan boshlanadi.

Tayyorgarlik bosqichi yozuvchilar haqida ma'lumot berish, o`quvchilarni asarda tasvirlanadigan voqealari idrok qilish, asar pafosini his etish, notanish va ko`p ma'noli so`zlar, murakkabroq tarzdagi obrazli ifodalarni izohlash kabi masalalarini o`z ichiga oladi. Agar asar yil fasllari haqida bo`lsa, tabiat qo`yniga sayohat uyushtirish ham sinfda o`qish muvaffaqiyatini ta'minlashga xizmat qiladi.

Matn bilan dastlabki tanishuvdan so`ng quyidagicha savollar bilan murojaat qilish darsda o`quvchilarning faolligini oshiradi:

1. Hikoyadagi qaysi epizodni qiziqarli deb o`ylaysiz?
2. Hikoya qahramonlaridan qaysi birining xatti-harakatini ma'qullaysiz? qaysi birining fe'l-atvori, o`zini tutishi sizga yoqmadni?
3. Hayotda shunday kishilarni uchratganmisiz?

Sinfda o`qishning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan omillardan yana biri tanlab o`qishdir. Masalan: 3-sinfda X. To`xtaboevning «Hassa» hikoyasi bilan tanishish jarayonida qobil boboning savollariga Shavkatning javoblari yoki S.Anorboevning «Bahs» hikoyasidagi bolalarning bahslashishi episodi yuzasidan o`qituvchi topshirig`iga ko`ra mazkur o`rirlarni tanlab qayta o`qilishi natijasida ushbu asarlarning badiiy estetik qimmatini chuqurroq o`zlashtirishga erishiladi.

Boshlang'ich sinf «O`qish kitobi» darsliklaridan turli mavzudagi asarlar o`rin olgan. Vatanparvarlik, atrofimizdagি olam, mehnatsevarlik kabilar o`qish darsliklaridagi keng qamrovli mavzulardan bo`lib, 2-sinfda «Ona yurtim-oltin beshigim» bo`limiga kiritilgan «O`zbekistonim» (H. Imonberdiev), «Istiqlol» (J.Jabborov), «O`lka» (E. Vohidov), «Yur tog`larga» (U. Nosir), 3-sinfda «Ona bitta, Vatan yagona» bo`limidagi «Vatanni suymak» (A. Avloniy), «Vatan mo`tabardir» (X. Davron), «Bilib qo`yki, seni Vatan kutadi» (Tohir Malik), 4-sinfda «O`zbekiston - Vatanim manim» bo`limidagi «Serquyosh o`lka»

(Z.Diyor), “Kichik Vatan” (Hikoya) A.Jo‘rayev, “Gulg‘unchalarmiz” (She’r)
M.Omon kabi asarlar misolida atroflicha tahlilga tortiladi.

Boshlang`ich sinflarning o`qish darslarida o`rganiladigan asarlarning mavzu doirasi ancha keng bo`lib, ona tabiat, yil fasllari, xalq og`zaki ijodi, mehnatga muhabbat, asosiy bayram sanalari, milliy istiqlol va ma'naviyat kabi umumiy mavzular doirasida birlashtirilgan.

Uzluksiz ta'limning boshqa bosqichlaridan farqli o`laroq, boshlang`ich sinflarning o`qish darslarida o`quvchilarning o`qish malakalarini shakllantirish, asar matni ustida ishslash ta'limning didaktik maqsadi hisoblanadi. U turli mavzudagi matnlar ustida ishslash orqali ma'naviy-axloqiy, adabiy - estetik tarbiya bilan chambarchas bog`lab olib boriladi.

Shunga ko`ra o`qish darslarining yetakchi xususiyati o`quvchilarning savodxonligini ta'minlash bilan birga badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirish, milliy mafkura asosida yuksak axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratiladi.

O`qish ta'limi bo`yicha o`quvchilarni faqat matn bilan tanishtirish yordamida dastur talablariga javob berib bo`lmaydi. Negaki matn tagzaminidagi tarbiyaviy g`oya uni tushunish, idrok qilish natijasidagina ochiladi. Boshqacha aytganda , har qanday asardagi sehr-joziba matn zaminidagi yashirin mazmun-mohiyatni anglab yetilganda o`quvchi diqqatini o`ziga jalb etishi mumkin. Bunga adabiy-nazariy tushunchalarni o`zlashtirish, adabiy tahlil malakalarini shakllantirish orqali erishiladi.

Asar tahlili jarayonida o`qituvchi savollariga o`quvchilarning o`z so`zlari bilan javob berishi ham matnda tasvirlangan voqeа - hodisalar yuzasidan mantiqiy fikrlashga, qahramonlarning xatti-harakatlarini to`g`ri baholashga yaqindan yordam beradi. Savollar uzuq-yuluq va mantiqsiz bo`lmasdan, qat'iy maqsad asosida izchil berilishi o`quvchilarning o`qilgan matn mohiyatini chuqr anglab yetishlariga imkon yaratadi. Negaki har qanday javob mustaqillikni taqozo etadi.

Ta'kidlash joizki, o`quvchilarning o`zlarini ham savol tuzishga o`rgatish lozim. K. D. Ushinskiy qayd etganidek, to`g`ri qo`yilgan masalaning o`zi yarim javobdir. Matn yuzasidan savol tuzishda o`quvchining dars mavzusi bilan bog`liq jihatlarga e'tibor berishi asarda tasvirlangan voqeal-hodisalar o`rtasidagi sababiy bog`lanishlarni bilib olishga, hayotiy xulosalar chiqarishga yo`l ochadi. Shuning uchun ham matn yuzasidan savol tuzish o`quvchini ongli va tushunib o`qishga yo`llaydi. Uning o`ziga xos xususiyatini o`quvchilarni badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirish orqali dunyoqarashlarini milliy istiqlol mafkurasi asosida to`g`ri shakllantirishga qaratilishi bilan belgilanadi.

O`qish darslari uchun tanlangan mavzular o`quvchilarga kundalik hayot, mustaqillikni mustahkamlash va insoniy munosabatlar bo`yicha ham bilim va tarbiya berishni ko`zda tutadi. Bular ichida istiqlol, vatan, ma'naviyat va tabiat haqidagi mavzular alohida ajralib turadi. Ulardan ko`zlangan maqsad o`zlikni anglash, istiqlol, vatan va tabiat bilan bog`liq tuyg`ularini uyg`otishdir.

Tabiatga oid mavzular yordamida o`quvchilar tabiatdagagi o`zgarishlar, yil fasllarining almashinushi, hayvonot olamiga doir bilimlarni egallaydilar. Ular o`quvchilarni kuzatuvchanlikka, tabiatni sevishga, unga nisbatan to`g`ri munosabatda bo`lishga o`rgatadi.

«O`qish kitobi» darsliklaridagi materiallar sinfdan sinfga o`tgan sari mavzu jihatidan ham, mazmun jihatidan ham kengaya borishi hisobga olingan.

1-sinfda o`rgatiladigan «Ajdodlarimiz-faxrimiz», «Ilm-aql chirog`i», «Zumrad bahor», «Kumush qish» kabi mavzular 2-4 sinflarda ham davom ettiriladi. Natijada o`quvchilarning oldingi bilimlari to`ldiriladi va boyitiladi.

Darsliklardagi har bir mavzu uchun tanlangan matnlarning janriy rang-barangligiga, poetik mukammalligiga, o`quvchilarning bilim darajasi va yosh xususiyatlariga mos kelishiga alohida e'tibor qaratiladi.

Ijtimoiy-tarixiy mazmundagi mavzular Vatanimiz o`tmishi, xalqimiz hayoti, mardonavor kurashi, ulug` siymolar tomonidan amalga oshirilgan ishlar, tarixiy sanalar to`g`risida muayyan tasavvur beradi. Beruniy, Amir Temur,

Alisher Navoiy, Bobur va boshqa ajdodlarimiz haqidagi matnlar shular jumlasidandir.

Bu xildagi asarlar o`quvchilarni faqat o`tmishimiz bilan tanishtirib qolmasdan, Vatan oldidagi farzandlik burchi va mas'uliyatini teran anglashga ham yordam beradi. Ularda Vatanga muhabbat tuyg`usi shu tariqa shakllanadi.

Vatanimiz o`tmishi haqida hikoya qilingan asarlar bilan tanishish va ularni tahlil qilish jarayonida o`quvchilar o`tmish bilan bugungi kunni taqqoslash imkoniga ega bo`ladilar. Jamiyat taraqqiyoti xususida qisqacha bo`lsa-da, tushuncha hosil qiladilar. Bu borada ayniqsa milliy istiqlol bilan bog`liq H. Imonberdievning «O`zbekistonim», J. Jabborovning «Istiqlol» (2-sinf), A. Rustamovning «Bayroq nima?», A.Obidjonning «O`ktam avlod» (3-sinf), S.Barnoevning «Mangulikka tatigulik kun», Ullibibining «E'zoz» (4-sinf) mavzusidagi asarlari yaqindan yordam beradi.

Badiiy asarlar matni ustida ishslash jarayonida ularning janriy hususiyatlaridan tashqari, mavzusi ham nazarda tutiladi. Masalan, tabiat tasviriga oid matnlar ustida ishslashda tabiat bag`riga sayohat uyshtirilib, bolalar kuzatuvchanlikka o`rgatilsa, vatanparvarlikka oid asarlar tahlili vatanning dongdor kishilari bilan uchrashuvlar yoki mavzuga daxldor kinofilmlar namoyishi vositasida amalga oshirilsa, dars samaradorligi yanada ortadi.

Umuman «O`qish kitobi» darsliklaridagi barcha mavzular o`quvchilarga ta'lif-tarbiya berish bilan birga, ularning lug`atini boyitishga, og`zaki va yozma nutqini to`g`ri shakllantirish, nutq madaniyatini o`stirishga ham qaratiladi.

O`quvchilar darsliklar yordamida o`zlashtiriladigan bilim, ko`nikma va malakalarining kelajak hayotda zarur bo`lishini tushunib yetishlariga erishish o`qituvchilar oldidagi muhim vazifalardandir.

O`qish darslari oldiga qo`yiladigan didaktik vazifalar quyidagilardan iborat:

1. O`quvchilarda yaxshi o`qish sifatlari: to`g`ri, tez, ongli, ifodali o`qish malakalarini shakllantirish.

2. O`quvchilarni kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimlarni olishga o`rgatish, kitobga muhabbat uyg`otish; ularni oddiy kitobxonidan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko`tarish.

3. O`quvchilarning atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va boyitish hamda ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish.

4. O`quvchilarni axloqiy, estetik jihatdan yetuk va mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash.

5. O`quvchilarning bog`lanishli nutqini va adabiy estetik tafakkurini o`stirish.

6. O`quvchilarning xayolot olamini boyitish.

7. Adabiy tasavvur elementlarini shakllantirish.

Shuni unutmaslik kerakki, har bir ta'limiy vazifani bajarishning aniq va ilmiy metodik usullari mavjud bo`lib, ular zamonaviy o`qitish usullari bilan boyitib borilmoqda. Bu vazifalar boshqalari bilan o`zaro bog`liq holda va sinfdan tashqari o`qish mashg`ulotlari jarayonida hal qilinadi.

1.2. Boshlang'ich sinf o`qish darslarida qo`llanadigan metod va usullar mazmuni

«Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi» da ta'lif berishning ilg`or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o`quv-uslubiy majmularini yaratish kabilar umumiy o`rta ta'limning asosiy vazifalaridan biri sifatida ta'kidlangan.

Ilg`or pedagogik texnologiya usullaridan foydalanish o`qituvchi va o`quvchi faoliyati doirasini aniq belgilab beradi.

Inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo`lgan o`qish faoliyati barcha fanlar darslarida amalga oshiriladi. Lekin o`qishga o`rgatish yo`l-yo`riqlarini o`qish metodikasi ishlab chiqadi. O`qish metodikasi kichik yoshdagagi o`quvchilarning umumiy rivojlanishi, psixologiya, xususiy metodika sohasidagi yutuqlar asosida takomillashtirilib boriladi.

O`qish darslarining samaradorligi ko`p jihatdan ta'lif metodlarining to`g`ri tanlanishiga bog`liq.

«Metod» atamasi yunon tilidan olingan bo`lib, muayan maqsadga erishish, borliqni amaliy va nazariy o`zlashtirish usullari majmuidir. Binobarin fanning o`zi kabi o`qitish metodlari ham doimiy rivojlanishda bo`ladi. Masalan, eski maktablarda o`qish quruq yod olish metodi asosida o`rgatilgan bo`lsa, hozir izohli o`qish asosida olib boriladi. Yod olish metodida matndagi so`zlarga izoh berishga, ma'nosini tushuntirishga, o`qilganni qayta hikoyalashga umuman olganda, o`qishning ongli bo`lishiga mutlaqo e'tibor berilmagan. Ularda ko`proq to`g`ri talaffuz, qiroat bilan o`qish, ifodali o`qish nazarda tutilgan.

Hozir maktablarda o`qish izohli o`qish metodi asosida olib borilayotgan ekan, quyidagicha savol tug`iladi: Izohli o`qish nima?

Izohli o`qishga XX asrning 60-70-yillarida rus pedagogi K. D. Ushinskiy asos solgan, u o`qishda o`quvchilarni «ongli, tushunib, o`ylab o`qishga» o`rgatishni alohida ta'kidlaydi va uni «Izohli o`qish» deb nomlaydi.

Izohli o`qish metodiga K. D. Ushinskiy ishining davomchilar yangiliklar kiritdilar. Korf va Vaxterev izohli o`qish o`quvchilarga real bilim berish vositasi desa, Vodovozov va Bunakov o`quvchilarga o`qish jarayonida bilim badiiy asar

tahlili va asarning tarbiyaviy xarakteri bilan bog`liq holda beriladi, degan fikrni ilgari suradilar.

Professor Asqar Zunnunov o`qitishning mazmuni va usullari haqida fikr yuritib, o`quvchilarning oldin bilimlarni o`zlashtirishiga, so`ng yod olishlariga e'tibor berilishi ta'lim jarayonida izohli o`qish deb nomlanganini ta'kidlaydi.

Demak, izohli o`qish deb o`ylashga, his qilishga, asarni to`liq idrok qilishga, o`qilganning mazmunini o`zlashtirishga olib keladigan o`qishga aytildi. Izohli o`qish asar mazmunini tushunishni, asardagi muhim fikrni, yozuvchi ilgari surayotgan g`oyani anglashni ta'minlaydi.

Izohli o`qish qo`yidagi tamoyillarga to`liq amal qilingandagina muvaffaqiyatli bo`ladi.

1. O`qishni hayot bilan bog`liq holda tashkil etish.
2. O`qishning ongli va ta'sirchan bo`lishi uchun o`quvchilarning hayotiy tajribalariga, taassurotlariga asoslanish.
3. O`qishni ko`rgazmali tashkil qilish, tabiatga, tarixiy joylarga ekskursiyalar uyuştirish, hayvonot olami va o`simliklar dunyosini kuzatish, rasmlar, jadvallar, predmetlar bilan tanishtirish hamda matnni o`quvchining ifodali o`qishi tarzida olib borish.

Boshlang`ich sinf o`qish darslarida asosan she'rlar, masallar, ertaklar, hikoyalar, afsonalar, maqol va topishmoqlar, ilmiy-ommabop asarlar o`qib o`rganiladi. Tabiiyki, ularning har biri o`ziga xos shakl, uslub va mazmunda yaratiladi. Shuning uchun ham har bir janrga mansub asarlarni o`ziga xos usulda o`qib o`rganish taqozo qilinadi.

Badiiy asarni izohli o`qishga yaqin bo`lgan metodlardan biri ijodiy o`qishdir. Atoqli metodist olim N. I. Kudryashov ijodiy o`qish metodi tarkibiga quyidagi ish usullarini kiritadi:

- a) o`qituvchilarning badiiy matnni sharhlab o`qishi hamda o`quvchilarning asarni to`g`ri va imkon qadar yanada chuqurroq, emostional idrok etishlarini ta'minlash maqsadini ko`zda tutuvchi so`zi;

b) o`qilgan asardan o`quvchilarning bevosita olgan taassurotlarini chuqurlashtirish maqsadiga ega bo`lgan va ularning diqqatini matnning muhim g`oyaviy va badiiy hususiyatlari sari yo`naltiradigan suhbat uyushtirish yoki o`qilgan asardan kelib chiqadigan badiiy, axloqiy, ijtimoiy-siyosiy muammoning qo`yilishi;

v) o`qituvchining asar o`qilganidan keyin o`quvchilarning asarni tadqiq etish jarayonida to`yingan badiiy kechinmalarini faollashtirish maqsadini ko`zda tutuvchi so`zi.

Ko`rinadiki, ijodiy o`qish izohli o`qishdan farqli o`larоq, to`g`ridan - to`g`ri matn mohiyatini ochishga ijodiy yondashishni taqozo etadi. Masalan 4-sinfda A. Oripovning «Dehqonbobo va o`n uch bolakay qissasi» asarini ijodiy o`qish metodi asosida o`rganish jarayonida matn mazmuni va shoir g`oyaviy niyatidan kelib chiqib Vatanimiz hududlaridagi aholining yashash tarzi bilan bog`liq milliy hususiyatlar haqida ham atroflicha tushuncha beriladi.

2-sinfda «O`tinchi yigit», 3-sinfda O`tkir Hoshimovning «Xazonchinak», 4-sinfda S. Anorboevning «qo`rkoq» asarlarini ham ijodiy o`qish metodi asosida o`qitish ijobiy samaralar beradi.

Ifodali o`qish. Boshlang`ich ta'lim tizimida mantiqiy o`qish (matnni to`g`ri, tushunib, tez (me'yorida) o`qish) va adabiy o`qish mukammal o`zlashtirilganidan so`ng ifodali o`qishga o`tiladi. U yod olingan she'riy asarlarni ifodali o`qishni ham o`z ichiga oladi. Ifodali o`qishning muvaffaqiyati o`quvchilarning asar mazmuni, g`oyaviy-badiiy hususiyatlari haqida muayyan tushunchaga ega bo`lishi bilan bog`liq.

Ohang va intonatsiya she'riy asarlarni ifodali o`qishda qay darajada muhim bo`lsa, nasriy asarlarni o`qishda ham muhim talablardan biridir.

Nasriy asarlarni ifodali o`qishdan oldin unda qanday g`oya ilgari surilayotganini aniqlash zarur. Masalan, 4-sinfda X. To`xtaboevning «Xatosini tushungan bola» hikoyasini ifodali o`qishdan oldin o`quvchilarga xatosini tushungan bola kim ekanligi, uning xatosi nimalardan iborat bo`lganligi, maqtanchoqlikning illat ekanligi to`g`risida tushuncha beriladi.

Ifodali o`qish oldiga qo`yilgan bu talab M. Abdurashidxonovning «Har kim ekkanin o`rar», Sh. Sa'dullaning «Laqma it», A. Oripovning «Dehqonbobo va o`n uch bolakay qissasi» kabi she'riy hikoyalarini o`qishga ham xosdir.

Badiiy o`qish. Badiiy o`qish ifodali o`qishning yuksak bosqichi hisoblanadi. Unda so`z san'atining barcha komponentlari ishtirok etadi. U o`quvchidan asar ruhiga batamom kirishni, san'atkorona o`qishni talab etadi. Badiiy o`qishda asar qahramonlarining ruhiy holati, kechinmalari to`la anglab yetilgandagina ta'sirchanlikka erishish mumkin. Badiiy o`qishga tayyorgarlik ko`rishda aktyorlarning audio-video tasmalarga yozilgan ijrolaridan foydalanish yaxshi samara beradi.

Izlanish metodi. Bu metod asardagi voqeа va tafsilotlar asosida o`quvchilarga savol-topshiriqlar tuzishda, qahramonlarga baho berishda keng qo`llaniladigan usuldir.

O`qish darslarida reproduktiv metoddan ham foydalaniadi. Masalan, o`qituvchi dastlabki darslarda o`zi asar matnini qismlarga bo`ladi, yozuvchi yoki shoirning aytmoqchi bo`lgan muhim fikriga o`quvchilar diqqatini jalb qiladi, uni aniqlab ko`rsatadi, o`quvchilar bilan birga tasvir vositalariga yuklatilgan ma'noni olib, o`quvchilarga ko`maklashadi. Bularning bari o`quvchilar uchun bir ko`rsatma vazifasini o`taydi. Shundan so`ng o`quvchilar o`qituvchining ko`rsatmalari yordamida yuqorida ko`rsatib o`tilgan vazifalarini o`zlari mustaqil ravishda bajaradilar.

Demak, metod – o`qitishning yangi yo`lini izlash, tushuntirishning oson usulini topish, qidirish degan ma'noni anglatadi. Pedagogik o`quv qo`llanmalarda o`quvchilarni bilim, ko`nikma va malakalar bilan quollantirish va ular tomonidan o`zlashtirish usullari o`qitish metodi deb ataladi. Maktablarda shu vaqtgacha qo`llanilgan o`qitish metodlari xilma-xil bo`lib, keng tarqalgan va eng ko`p qo`llaniladigan metod turlari quyidagilardir.

- 1) o`quv mavzusini og`zaki bayon qilish;
- 2) suhbat;
- 3) darslik va kitob bilan mustaqil ishslash;

- 4) demonstratsiya, illyustratsiya (tasvirlash, rasmlar bilan ko`rsatish) va ekskursiya;
- 5) og`zaki, yozma mashq hamda grafik ishlar, mакtab ma`ruzasi;
- 6) amaliy mashg`ulotlar (laboratoriya ishi, masala ishlash).

1. O`quv materiallarini og`zaki bayon qilish metodi:

Mazkur metod bayon qilinayotgan bilimlarni to`g`ridan-to`g`ri o`qituvchining jonli nutqi orqali bayon qilinishi bilan tavsiflanadi:

Bu metod:

1. a) hikoya qilish;
2. b) tushuntirish;
3. v) mакtab ma`ruzasidan iborat bo`lishi mumkin.

Hikoya qilish-o`qituvchi tomonidan yangi o`tilayotgan mavzuga oid faktlar, tabiat hodisalari va voqealarning mazmunini ifodalaydigan tushuncha, qonun va qoidalarning bayon qilinishidir. Odатда mакtab ma`ruzasi mavzuning mazmuniga ko`ra, bir -ikki mavzuning asosiy g`oyaviy yo`nalishini ifodalovchi, tugallangan (yaxlit) tushunchalar tavsifidir. Og`zaki bayon qilish metodidan samarali foydalanmoq uchun yuqorida ko`rsatib o`tilganlardan tashqari quyidagi bir qancha didaktik qoida va tajribalarga amal qilinishi lozim:

1. Bayon qilinayotgan mavzular mакtab ta`limi oldida turgan umumiy talablarni amalga oshirishga qaratilgan bo`lishi kerak. Binobarin, mavzular g`oyaviy jihatdan puxta, nazariya bilan amaliyotni bog`lashni nazarda tutishi kerak.
2. Mavzuda o`quvchilarga tarbiyaviy ta`sir ko`rsatish usullari hisobga olinishi kerak.
3. O`quvchilarni dars jarayonida mavzuga oid fan yangiliklari, yangi kashfiyotlar bilan tanishtirish, ular yuzasidan mustaqil ishslashlari uchun vazifalar berib borilishi lozim.
4. Og`zaki bayon qilish metodida o`qituvchining nutqi birdan-bir bilim manbai hisoblanadi. U ravon, tushunarli va emotSIONAL (ta`sirchan) bo`lishi lozim. Dars davomida ishlatilgan tushuncha va yangi so`zlarga

(terminlarga) izoh berish, qoida va qonunlar ta’rifini sodda, ixcham va tushunarli qilib aytilishiga erishish kerak.

5. Bayon qilish jarayonida ishlatilgan ta’riflar, qoida va qonunlar o’qituvchi tomonidan yozdirilishi kerak.

2. Suhbat metodi:

Suhbat metodi tajribada eng ko`p qo`llaniladigan va samarali metodlardan biridir. Bu ko`pincha savol-javob metodi deb ham yuritiladi. Chunki mazkur metod dars jarayonida savol-javob vositasida olib boriladi. O`qituvchi o`quvchilarga savol berib yoki ilgari o`zlashtirgan bilimlarini eslariga tushirish, yoxud mavjud bilimlar asosida yangi mavzulardan tegishli xulosa va natijalar chiqarish, umumlashtirish, shuningdek, o`quvchilarning o`zlashtirgan bilimlariga tayanib, yangi xulosalar chiqarishni taklif etish yo`li bilan bilim, ko`nikma va malakalar berishi nazarda tutiladi. Suhbat quyidagi maqsadlarda olib borilishi mumkin:

- o`tilgan mavzuning mazmuniga bog`liq holda o`quvchilarning hayotda kuzatgan va tajribada ishlatgan fakt (dalil), narsa va hodisalardan nimalarni bilganliklarini aniqlash;
- o`tilgan mavzu va, hatto ilgari o`tilgan materiallarni (ma'lumotlarni) qayta esga tushirish;
- o`quvchilarning bayon qilinayotgan ma'lumotni qanchalik idrok qilayotganliklarini aniqlash;
- o`tilayotgan mavzuga oid ma'lumotlar haqida suhbat olib borish;
- bayon qilinayotgan ma'lumotni takrorlash va mustahkamlash;
- o`tilayotgan mavzu yuzasidan xulosa chiqarish, umumlashtirish, qoida va ta’riflar ustida ishlash;
- o`zlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko`nikma va malakalarni hisobga olish;
- uyga berilgan topshiriq va mustaqil o`rganilgan ma'lumotlar haqida suhbat o`tkazish.

Suhbat metodi o`qituvchi faoliyatining yangi-yangi qirralarini ochib beradi va bir maqsadga qaratilgan mustahkam harakat birligini tug`diradi.

3. Darslik bilan ishlash metodi

Ta`lim tizimida darslik bilan ishlash metodi asosiy o`rinlardan birini egallaydi. Binobarin, darslikdan foydalanmay biror fan, texnika yoki san`at sohasini egallab bo`lmaydi. Darslik bilan ishlash ta`lim jarayonida o`qish-o`qitish ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun yordam bersa. ikkinchi tomondan, o`quvchilarning kelajakdagi faoliyati uchun zarur bo`lgan ilmiy va ilmiy-ommabop adabiyotlarni mustaqil o`qib-o`rganish madaniyatini tarkib topdirish bilan birga u bolalarni ko`nikma va malakalar bilan quollantirishda katta ahamiyatga ega. O`quv adabiyoti bilan ishlash murakkab psixik jarayonni o`z ichiga oladi. O`qish jarayoni o`qituvchi tomonidan bayon qilinayotgan bilimlarni o`quvchilarning eshitib, o`qishlarinigina emas, balki o`quv materiallarini (ma'lumotlarni) kitob matnidan ko`rib,,ongli idrok qilish faoliyatini ham taraqqiy ettirishni nazarda tutadi.

Darslik bilan ishlash metodi ikki shaklda olib boriladi:

- dars jarayonida darslik va o`quv adabiyoti bilan ishlash;
- darslik va o`quv adabiyotlari bilan sinfdan va maktabdan tashqari mustaqil ishlash.

Kitob bilan ishlashning har ikkala shakli o`quv fanlari bo`yicha deyarli hamma sinflarda qo`llanishi mumkin. O`quvchilarni darslik va boshqa o`quv ma'lumotlari bilan birga qo`shimcha adabiyot, ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar, shuningdek gazeta, jurnallardan foydalanishga ham o`rgatish kerak.

4. Demonstratsiya, illyustratsiya va ekskursiya (sayohat) metodi

Demonstratsiya va illyustratsiya o`quv ma'lumotlarini aniq usullar orqali bevosita idrok qilish jihatidan muhim ahamiyatga ega. O`rganilayotgan buyum va hodisalarni to`liq va aniq tasavvur etgan taqdirdagina o`quvchilarning olgan bilimlari chuqur va puxta bo`ladi. O`quvchilar turmush va texnikadagi narsa, hodisa va voqealarni demonstratsiya metodi orqali bevosita ko`rib, idrok qilishlari natijasida ular haqida mustaqil fikr yuritish, tahlil qilish, tegishli

xulosalar chiqarishga muvaffaq bo`la oladilar. Bu metod dars davomida yoki darsning ayrim qismlarida qo`llaniladi. Illyustrativ-tasvirlash. Rasmlar ko`rsatish. Maktabda qo`llaniladigan ko`rsatma ma'lumotlar ikki turda bo`lishi mumkin: tabiiy va tasviriy ko'rgazmali vositalar.

5. Amaliy mashg`ulotlar (og`zaki, yozma va grafik masalalar yechish, laboratoriya ishlarini bajarish). Og`zaki, yozma va grafik masalalar ishlash metodi muhim didaktik ahamiyatga ega bo`lib, deyarli u hamma sinflarda va hamma o`quv fanlari bo`yicha keng qo`llaniladi. Masala ishlash metodi o`quvchilar o`zlashtirgan bilim, ko`nikma va malakalarni mustahkamlash, tekshirib ko`rish, takrorlash, shuningdek, ularni turmushda qo`llay olish qobiliyatlarini taraqqiy ettirish maqsadida olib boriladi. Mashg`ulotdan kuzatiladigan maqsad o`quvchilarning mustaqil bajaradigan ishlarining xususiyatlariga qarab uch turda olib boriladi:

1. a) og`zaki mashq;
2. b) yozma mashq;
3. v) grafik ishlar mashqi.

O`quvchilarga mashq uchun beriladigan topshiriqlar albatta, ilgari o`zlashtirilgan qoida va qonunlarni o`z ichiga olishi lozim. Agar topshirilgan mashqlar bir necha yo`llarni o`z ichiga olgan bo`lsa, bunday hollarda mashq rejasini tuzish va shu asosda ishlash talab etilishi kerak. Masalan, mashq uchun berilgan masalaning mazmuni, nima qilish zarurligi, nima berilgani, nimani topish talab qilinishi, ishni nimadan boshlash kerakligi, qanday metoddan foydalanish mumkinligi belgilanmog`i lozim. Bu o`rinda o`quvchilarga o`zlarini o`zlashtirgan qoida va qonunlar asosida misol va masalalar tuzdirish muhimdir. Grafik ishlar ham yozma ishlar jumlasiga kirib, o`quvchilarning o`zlashtirgan yoki o`zlashtirayotgan bilimlarini ongli va mustahkam esda saqlab qolishlari hamda shu sohada tegishli ko`nikma va malakalar hosil qilishlariga yordam beradi.

6. Laboratoriya mashg`ulotlarini o`tkazish metodi. Laboratoriya metodi ta`lim jarayonida o`quvchilar tabiatdagi narsa va hodisalar, ularning shakli, hajmi,

tarkibi, tuzilishi, o`zgarishi va taraqqiy etish qonunlari haqida yangidan-yangi bilimlar berish va mustahkamlash hamda ularning tegishli ko`nikma va malakalar hosil qilishlarida muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida ta'kidlangan metodlardan tashqari, boshlang`ich sinf o`qish darslarida ilg`or pedagogik texnologiya usullaridan «Aqliy hujum», «Tarmoqlar», «Guruqlar bilan ishlash» kabilardan ham foydalanish yaxshi samara beradi.

Shuni ta'kidlab o`tish kerakki, har bir darsda qanday metoddan foydalanish, darsda qanday usullarni qo`llash o`qituvchi tomonidan oldindan belgilab olinishi va puxta ishlab chiqilishi kerak.

1.3. Ta'lif jarayonining maqsadiga ko'ra o'quvchilarning o'quv faoliyatini tashkil qilish shakllari

Turli dars tuzilmalaridan yanada samaraliroq foydalanish yo'llarini izlashda darsda o'quvchilar o'quv faoliyatlarini tashkil etish shakllari alohida ahamiyatga ega bo'lmoqda. Pedagogik adabiyotlar va maktab amaliyotida asosan uchta shunday shakllari qabul qilingan — ommaviy, guruhli va individual.

Ta'limning ommaviy shakli sinfdagi jami o'quvchilarning o'qituvchi rahbarligi ostida birgalikda harakatlarini ko'zda tutadi. Guruhli shaklida esa o'quvchilar 3—6 kishidan iborat guruhlar yoki juftliklarda ish olib boradilar. Guruhlar uchun topshiriqlar bir xil yoki turlichay bo'lishi mumkin. Individual shakli har bir o'quvchining alohida mustaqil ishlashini ko'zda tutadi.

O'qitish frontal shaklida, o'qituvchi bir vazifa ustida ishlayotgan butun sinf o'quv faoliyatini boshqarib boradi. U o'quvchilarning hamkorliklarini ta'minlaydi va hamma uchun bir bo'lgan ish sur'atini belgilaydi. Frontal ishlashning pedagogik samaraliligi ko'p jihatdan o'qituvchining butun sinfni nazorat qila bilishiga va shu bilan bir vaqtida har bir o'quvchining ishini ko'zdan qochirmasligiga bog'liq bo'ladi. Agarda o'qituvchi ijodiy jamoali ishslash muhitini yarata olsa, o'quvchilar diqqatini va faolliklarini ta'minlab tura olsa samarasini yana oshadi. Ammo frontal ishslash individual farqlarni hisobga olmaydi, u o'rta o'quvchiga mo'ljallangan. Shuning uchun ba'zi o'quvchilar berilgan ish sur'atidan ortda qoladilar, boshqalari esa zerikib, qiynalib ketadilar. *O'qish guruhli shaklida* o'qituvchi sinf o'quvchilari guruhlari o'quv-o'rganish faoliyatilarini boshqaradi. O'quvchilarni zvenoli, brigadali, birlashtirish-guruhli va differensiyalangan guruhlarga taqsimlash mumkin. O'qish zvenoli shakli o'quvchilar doimiy guruhi o'quv faoliyatini tashkil etishni ko'zda tutadi.

Birlashtirish-guruhli shaklida sinfni odatda katta umumiy topshiriqni har biri faqatgina bir qismini bajaradigan guruhlarga ajratishni ko'zda tutadi.

Differensatsiyalashgan-guruhli ta'lif shakli doimiy guruhlar bilan ham, bir xildagi o'quv imkoniyatlariga ega va o'quv ko'nikmalari bir xil darajada

shakllangan o'quvchilarni birlashtirishini ko'zda tutadi. Guruhli shakllariga o'quvchilarning juft bo'lib ishslashlarini ham kiritiladi. O'quv guruhlari faoliyatlarini o'qituvchi o'zi bevosita hamda o'z yordamchilari — o'quvchilar fikriga qarab tayinlangan zvenolar va brigadalar orqali boshqaradi.

Individual ta'lism o'quvchilarning boshqa o'quvchilar bilan bevosita aloqalarini ko'zda tutmaydi. O'z mohiyatiga ko'ra sinf jamoasi yoki muayyan guruhlar bilan ishslashdan tubdan farq qilmasada, biroq o'quvchi o'zining shaxsiy imkoniyatlariga muvofiq o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni mustaqil bajaradi. Bu maqsad yo'lida maxsus tayyorlangan kartochkalardan foydalanish mumkin.

Darsda o'qituvchining e'tibori bir necha o'quvchiga qaratilsa, bu vaqtida qolgan o'quvchilar mustaqil ishlasalar ta'limning bunday shakli individual-guruhli shakl deb ataladi.

Zamonaviy ta'lism amaliyotida ko'proq ikki tashkiliy shakl:: ommaviy va individual shakllardan foydalaniladi. Ayni vaqtida guruhli va juftli o'qish shaklidan amaliyotda ancha keng foydalaniladi.

Ta'limning ommaviy shakli ham, guruhli shakli ham jamoaviy hisoblanmasada, lekin ayrim pedagoglar ularni ommaviy ta'lism deb ko'rsatishga harakat qiladilar.

Jamoaviy ishslash faqatgina differensatsiyalashgan guruhli ishlar asosidagina tashkil etiladi. O'quv ishlarini tashkil etishning jamoaviy shakli o'qituvchi va o'quvchilarning dinamik yoki o'zgaruvchan tartibli juftliklarida kechayotgan munosabatlaridir.

Ta'lism maqsadlari va foydalanishning qulayligi nuqtayi nazaridan ta'lism shakllari quyidagicha darajalanadi: **asosiy, qo'shimcha va yordamchi ta'lism**.

Dars — ta'lismni tashkil elish asosiy shakli. **Dars** ta'lism jarayonining yaxlitligi nuqtayi nazaridan ta'limning asosiy tashkiliy usuli hisoblanadi. Unda sinf-dars tizimining xususiyatlari aks etadi, unda o'quvchilarni ommaviy qamrab olish, tashkiliy tartib va o'quv ishlarining muntazamligi ta'minlanadi. Dars iqtisodiy jihatdan foydalidir. O'quvchilar hamda sinf jamoasining individual xususiyatlarini bilishi o'qituvchi uchun har bir o'quvchi faoliyatiga

rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatishga imkon beradi. Dars doirasida ommaviy, guruhli va individual ta'lif shakllarini birlashtirish imkoniyati uning rad etib bo'lmaydigan ustunligi hisoblanadi.

Dars bevosita o'qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt davomida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lif jarayonining asosiy shakli sanaladi. Darsda har bir o'quvchi xususiyatlarini hisobga olish, barcha o'quvchilarning mashg'ulot jarayonida o'rganilayotgan fan asoslarini egallab olishlari, ularning idrok etish qobiliyatları va ma'nnaviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash hamda rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratiladi.

Dars ta'lifning boshqa shakllaridan farq qiluvchi o'ziga xos belgilarga ega, chunonchi: o'quvchilarning doimiy guruhi, o'quvchilar faoliyatiga ularning har biri xususiyatlarini hisobga olish bilan rahbarlik qilish, o'rganilayotgan fan asoslarini bevosita darsda egallab olish (bu belgilari darsning faqat mazmunini emas, balki o'z xususiyatini ham aks ettiradi).

Darsning tuzilishi oddiy va ancha murakkab bo'lishi mumkin. Bu o'quv materialining mazmuni, darsning didaktik maqsadi, o'quvchilar va jamoa sifatida sinfning xususiyatlariga bog'liq.

Zamonaviy didaktikada darsning quyidagi turlari ajratib ko'rsatilgan:

- aralash darslar;
- yangi ma'lumotlar, aniq hodisalar bilan tanishish bo'yicha yoki umumlashtirishlarni anglab yetish va o'zlashtirish maqsadiga ega darslar;
- bilimlarini mustahkamlash va takrorlash darslari;
- o'rganilganlarni umumlashtirish va tizimlashtirish asosiy maqsadiga ega darslar;
- malaka va ko'nikmalarni ishlab chiqish va mustahkamlash darslari;
- bilimlarni tekshirish va tekshirish ishlarini o'rganish darsi;
- o'z tuzilishi bo'yicha oddiy bo'lgan, ya'ni bitta asosiy didaktik maqsadga ega bo'lgan dars turlari (o'rta va katta sinflarda qo'llash uchun mos keladi).

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar yoshlarini hisobga olib o'quv ishlari turli xillaridan foydalanishga, yangi bilimlarni berishni avval ilgari

o'rganilganni mustahkamlash, takrorlash bilan birga olib borishga to'g'ri keladi. Hatto tekshirish darslari ham bu yerda ko'pincha ishlar boshqa turlarini o'z ichiga oladi: materialni og'zaki yetkazish, qiziqarli hikoyani o'qish. Darsning aynan mana shu turi aralash (kombinatsiyalashgan), yoki murakkab tuzilishli deb ataladi. Kombinatsiyalashgan darsning taxminiy tuzilishi: uv vazifalarini tekshirish va o'quvchilar bilan savol-javob. yangi materialni o'rganish. o'zlashtirishini dastlabki tekshirish. mashq misollari davomida vangi bilimlarini mustahkamlash. ilgari o'rganilganlarni suhbat ko'rinishida takrorlash. o'quvchilar bilimlarini tekshirish va baholash, uvga vazifa berish.

O'quvchilarning yangi materiallar bilan tanishish darsi yoki yangi bilimlarni berish (o'rganish) darsi nisbatan keng doiradagi savollarni o'z ichiga olgan va uni o'rganishga ko'p vaqtini talab qiluvchi, o'quvchilarga tanish bo'lмаган yangi material uning mazmuni bo'lgan ta'lif jarayoni. Bunday darslarda uning mazmuni, aniq maqsadi va o'quvchilarning mustaqil ish bajarishga tayyorgarliklariga qarab, ba'zi hollarda yangi materialni o'zi bayon etadi. Boshqa hollarda esa — o'qituvchi rahbarligi ostida o'quvchilarning mustaqil ishlari olib boriladi, uchinchi holda — unisi ham bunisidan ham foydalaniladi. Yangi material bilan tanishish darsining tuzilishi: yangi materialni o'rganish uchun asos bo'lgan avvalgi materialni takrorlash. O'qituvchining yangi materialni va darslik bilan ishslashni tushuntirishi, bilimlarni tushunishlarini tekshirish va dastlabki mustahkamlash, uyga vazifa berish.

Bilimlarni mustahkamlash darslarida o'quv ishining asosiy mazmuni ilgari o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkam o'zlashtirish maqsadida ularni ikkinchi bor tushunib olish hisoblanadi.

O'quvchilar o'z bilimlarini yangi manbalar bo'yicha anglab oladilar va chuqurlashtiradilar yoki ularga ma'lum bo'lgan qoida asosida yangi masalalar yechadilar, ilgari olgan bilimlarini og'zaki va yozma takrorlaydilar yoki ilgari o'rganganlarini yanada chuqurroq va mustahkam o'zlashtirish maqsadida ulardan alohida masalalar bo'yicha axborot beradilar. Tuzilishi bo'yicha bunday

darslar quyidagi bosqichlardan o'tishni ko'zda tutadi: uy vazifasini tekshirish, og'zaki va yozma mashqlarni bajarish, topshiriqni bajarishni tekshirish, uyga vazifa berish.

Ko'nikma va malakalarni ishlab chiqish va mustahkamlash darslari bilimlarni mustahkamlash darslari bilan bog'liqdir. Bu jarayon bir necha maxsus darslar jarayonida amalga oshiriladi. Boshqa darslarda yangi mavzularni o'rganishda davom ettiriladi. Shu bilan birga avvaliga mashqni bajarish ishlari bolalar tomonidan o'qituvchi yordamida va ular topshiriqni qanday tushunganlarini dastlab jiddiy tekshirish bilan bajarilsa, keyinchalik esa qayerda qanday qoida qo'llanilishini o'quvchilarning o'zları belgilaydilar. Ular turli vaziyatlarda malaka va ko'nikmalarini qo'llash, shu jumladan, hayotiy amaliyotida qo'llashni o'zlashtirib olishlari kerak.

Umumlashtiruvchi darslar (bilimlarini umumlashtirish va tizimlashtirishlar) ilgari o'tilgan materialdan eng muhim savollari qayta takrorlanadigan va tizimlashtiriladigan, o'quvchilar bilimlarida mavjud kamchiliklari to'ldiriladigan va o'rgаниlayotgan kursning muhim g'oyalari ochib beriladigan darslar hisoblanadi. Umumlashtiruvchi darslar mavzu, bo'lim va o'quv kurslarining yakunida o'tkaziladi. Kirish va yakunlash darsning tarkibiy elementi hisoblanadi. Takrorlash va umumlashtirishning o'zi hikoya, qisqacha xabarlar, darslikni o'qib berish yoki o'qituvchining o'quvchilar bilan suhbatlashishi shaklida o'tkazilishi mumkin.

Tekshirish (nazorat) darslari o'qituvchiga o'quvchilarning ma'lum sohadagi bilim, malaka va ko'nikmalari shakllanganlik darjasini, o'quv materialini egallashdagi kamchiliklarni aniqlash, shuningdek, navbatdagi topshiriqlarning bajarish yo'llarini belgilab olishga yordam beradi. Tekshirish darslari o'quvchidan ushbu mavzu bo'yicha uning hamma bilim, ko'nikma va malakalarini qo'llashini talab etadi. Tekshirish og'zaki hamda yozma shaklda ham amalga oshirilishi mumkin.

Yuqorida ifodalangan hamma darslarning majburiy elementi tashkiliy va yakuniy bosqich hisoblanadi. Tashkiliy bosqich maqsadlarni qo'yish va ularni

o'quvchilar tomonidan qabul qilish sharoitlarini ta'minlash, ish sharoitini yaratish, o'quv faoliyati motivlarini dolzarblashtirish va materialni idrok etish, anglash, eslab qolish yuzasidan beriladigan ko'rsatmalarini shakllantirishni ko'zda tutadi. Darsga yakun yasash bosqichida maqsadlarga erishish qayd etiladi, ularga erishishda barcha yoki yakka o'quvchilarning alohida ishtiroti belgilanadi, ishlari baholanadi va istiqbollari belgilanadi.

Ta'limning tashkiliy shakli sifatida dars dinamik hodisadir. U pedagogik jarayonning yaxlitligini ta'minlaydi va *ta'limiy-tarbiyaviy-rivojlanirish* vazifalarini ijobiy yechimini topishga imkon beradi.

Dars rivojlanishining asosiy tendensiyalari darsga bo'lgan talablarda o'zining aniq ifodasini topadi. Zamonaviy darslar quyidagi talablarga javob bera olishi lozim:

- fanning ilg'or yutuqlari, pedagogik texnologiyalardan foydalanish, darsni o'quv-tarbiyaviy jarayon qonuniyatlari asosida tashkil etish;
- darsda barcha didaktik tamoyil va qoidalarning optimal nisbatlarini ta'minlash;
- o'quvchilarning qiziqishlari, layoqati va talablarini hisobga olish asosida ular tomonidan bilimlarning puxta o'zlashtirilishi uchun zarur sharoitlami yaratish;
- o'quvchilar anglab yetadigan fanlararo bog'liqliklarni o'rnatish;
- ilgari o'rganilgan bilim va malakalari, shuningdek, o'quvchilarning rivojlanish darajasiga tayanish;
- shaxsning har tomonlama rivojlanirishni motivatsiyalash va faollashtirish;
- o'quv-tarbiyaviy faoliyat barcha bosqichlarining mantiqiyligi va emotSIONalligi;
- pedagogik vositalardan samarali foydalanish;
- zarur bilim, ko'nikma va malakalar, fikrlash va faoliyat ratsional usullarini shakllantirish;
- mavjud bilimlarni doimo boyitib borish ehtiyojini yuzaga keltirish;
- har bir darsni puxta loyihalashtirish, rejalashtirish, tashxis va taxmin qilish.

Har bir dars quyidagi uchta asosiy maqsadga erishishga yo'naltiriladi: *o'qitish, tarbiyalash, rivojlanirish*. Ana shularni hisobga olib darsga umumiy talablar didaktik, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi talablarda aniq ifodalanadi.

Didaktik yoki ta'limiyl talablarga har bir darsning ta'lim vazifalarini aniq belgilash, darsni axborotlar bilan boyitish, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarni hisobga olish bilan mazmunini optimallashtirish, idrok etish eng yangi texnologiyalarini kiritish, turli xildagi shakli, metodlari va ko'rinishlaridan mos ravishda foydalanish, dars tuzilishini shakllantirishga ijodiy yondashish, jamoaviy faoliyat usullari bilan birga o'quvchilar mustaqil faoliyatlarini turli shakllaridan birga foydalanish, operativ qayta aloqani ta'minlash, amaliy nazorat va boshqaruvni amalga oshirish, ilmiy mo'ljal va darsni mahorat bilan o'tkazishni ta'minlash kabilar kiradi.

Darsga nisbatan qo'yiladigan tarbiyaviy talablar o'quv materialining tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash, darsdagi faoliyat, aniq erishilishi mumkin bo'lgan tarbiyaviy maqsadlarni shakllantirish va qo'yish, faqat o'quv ishlari maqsadlari va mazmunidan tabiiy ravishda kelib chiqadigan tarbiyaviy masalalarni belgilash, o'quvchilarni umuminsoniy qadriyatlarda tarbiyalash, hayotiy muhim sifatlar (tirishqoqlik, tartiblilik, mas'uliyatlilik, intizomlilik, mustaqillik, ish bajarishga qobiliyatlilik, e'tiborlilik, halollik va boshqalar)ni shakllantirish, o'quvchilarga diqqat-e'tiborli munosabatda bo'lib, pedagogik odob talablariga amal qilish, o'quvchilar bilan hamkorlik va ularning muvaffaqiyat qozonishlaridan manfaatdor bo'lishdan iborat.

Barcha darslarda doim amalga oshirilib boriladigan rivojlantiruvchi talablarga o'quvchilarda o'quv-o'rganish faoliyati ijobjiy sifatlari, qiziqish, ijodiy tashabbuskorlik va faollik, shakllantirish hamda rivojlanirish, o'quvchilarining idrok etish imkoniyatlari darajasini o'rganish, hisobga olish, «rivojlanishning yaqin zonasini loyihalashtirish», «o'zib ketish» darajasidagi o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish, rivojlanishidagi yangi o'zgarishlarni rag'batlantirish, o'quvchilarining intellektual, emotSIONAL, ijtimoiy rivojlanishlaridagi «sakrash»larni oldindan ko'ra bilish, boshlanayotgan

o'zgarishlarni hisobga olish asosida o'quv mashg'ulotlarini operativ qayta qurish kabilar kiradi.

Ta'lif jarayonining dinamik o'sishi natijasida o'quvchilarning o'quv faoliyatini tashkil etishning yangicha ko'rinishlari vujudga kela boshladi. Bular nostandardarslardir. XX asr 70-yillari o'rtalarida, milliy maktablarda o'quvchilarning mashg'ulotlarga qiziqishlarining pasayish xavfi aniqlandi. Muammoni bartaraf etish maqsadida nostandard darsslarning tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratildi. Nostandard dars an'anaviy tuzilishdagi improvizatsion o'quv mashg'ulotidir.

Pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish nostandard darsslarning o'nlab turlari mavjudligini ko'rsatdi. Ular orasida «berilish» darsi, amaliy o'yinlar, matbuot konferensiyalari, ijodiy hisobotlar. musobaqalar, KVN turidagi o'yinlar, tanlov, teatrlashtirilgan darslar, binar, kompyuterli darslar, fantaziyalar, «sudlar», haqiqatni izlash, «paradokslar», auksionlar, dialoglar va boshqalar ko'zga tashlanadi.

Hozirgi paytda maktab nazariyasi va amaliyotida zamonaviy dars iborasi tez-tez tilga olinmoqda. Zamonaviy dars qanday dars?

Zamonaviy dars shunday darski, unda o'quvchilarning mavjud imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalaniib, uning aqliy potensialini ishga solib, rivojlantirishni ta'minlaydi. O'quvchi-yoshlar esa o'z navbatida bilimlarini chuqr o`zlashtiradilar va ma`naviy barkamol shaxs bo`lib yetishadilar.

Zamonaviy dars deganda qanday darsni tushunamiz, uning belgilari, mezonlari qanday, u qanday shakillarga ega, u qanday usulda o'tiladi, darsda qanday usullardan foydalilanadi, unda qanday didaktik talablar qo`yiladi? Kabi savollar tug`ulishi tabiiy. Maktab tajribalaridan, mavjud didaktik nazariyalar va nuqtai nazarlaridan kelib chiqib, o`qituvchi- pedagoglar o'quvchilar fikrini oydinlashtirishga, yuqoridagi savollar yechimini topishga harakat qilamiz.

Zamonaviy darsga qo`yiladigan didaktik talablar quyidagilardan iborat:

-o'quv maqsadlarini aniq va ravon belgilash, dars bosqichlarining ketma-ketligi, jarayonning rivojlantiruvchi ta'lif va tarbiyaviy maqsadlarini ta'min etish;

-ta`lim mazmunini optimal aniqlash, uni o`quv dasturlari, ta`lim standarti meyorlariga mosligi, o`quvchi-talabalar tayyorgarligining dars jarayoniga mosligi;

- o`zlashtirib olishlarini kafolatlash orqali o`quvchi-talabalarni ko`nikma, malakalarni egallab olishga tayyolash;
- dars mazmuniga mos ravishda ratsional metod, uslub, vositalarni tanlay olish, shu orqali o`quvchilarning qiziqishini oshirish, yakka va jamoa tartibida ishlashga muhit yaratish.
- dars jarayonida turli didaktik prinsiplardan foydalanish;
- o`quvchilarning muvaffaqiyatli o`qishi uchun sog`lom muhit yaratish.

Demak, darsda o`qitishning asosi bo`lgan didktika o`qitish muammosi va nazariyasi hisoblanadi.

Bir soatlik darsga mo`ljallangan o`quv dasturi materiallarining mazmunini bayon qilish uchun didaktik maqsad va talablarga muvofiq ravishda tashkil qilingan mashg`ulot turi dars(tiplari) turlari deb yuritiladi.

Darsning mantiqiy tuzilishi va bilish jarayonining xarakteriga qarab ta`llim tizimida qo`llanilayotgan dars turlari quyidagilardir: kirish darsi; egallanadigan bilimlar bilan birlamchi tanishish darsi; yangi bilimlarni egallah darsi; egallangan bilimlarni amaliyotga qo`llash darsi; malaka va ko`nikmalar hosil qilish darsi; o`rganilgan narsani tizimlashtirish va umumlashtirish; takrorlash va olingan bilimni mustahkamlash darsi; bilimlarni tekshirish darslari; aralash darslar va h.k.

Yana darslar ularni o`tish asosiga qarab quyidagi turlarga bo`linadi:

1. Dars-ma`ruza; dars-suhbat; kino darsi; nazariy yoki mustaqil ishlar darsi, aralash dars.
2. Dars-laboratoriya; amaliy ishlar darsi; dars-ekskursiya.
3. Og`zaki so`rash; yozma sinov; sinov amaliy nazorat; nazorat ishi, aralash dars.

Darslar ichki tuzilishiga qarab to`rtta tip(tur)ga bo`linadi:

- a) yangi bilimlarni egallah uchun tayyorlanish;

b) yangi bilimlarni egallash;
c) yangi bilimlarni mustahkamlash va tizimga keltirish;
egallangan bilimlarni amaliyotga qo'llash. Bu tip(tur)dagi dars aralash darslar deyiladi.

Aralash darslarning shu kungacha saqlanib kelishining sabablaridan biri, aralash darsdagi to`rt unsur(element) istagan ketma-ketlikda qo'llanilishi mumkin. Shu bilan birga bu turdag'i dars jarayonida didaktikaning deyarli barcha talablariga erishish oson. Shuning uchun ham didaktik nazariyotchilarining ta'kidlashicha. 80% darslar shu turda olib borilar ekan.

Bu turdag'i darslarning yana afzalligi shundaki, u dars jarayonida hukm suruvchi didaktik qonuniyatlarga mos keladi. Bu darslarda o'qituvchi va pedagoglar, o'z sharoitlaridan kelib chiqib, ta'lim oluvchilarining qabul qilish imkonii, tayyorgarlik darajasi va boshqa bir qator omillarni hisobga olgan holda darsga ajratilgan dars ichidagi to`rt unsurga ixtiyoriy ravishda taqsimlay oladilar.

Aralash darslarning yuqorida aytilgan yutuqlari bilan bir qatorda, kamchiliklari ham mavjud. Chunonchi, aralash darslarda, undagi to`rt unsurining hammasiga vaqt yetishmaydi. Dars olib boruvchilarining ixtiyoridan tashqari, avvalgi darsni yaxshi takrorlab chiqaman degan o'qituvchiga, albatta yangi bilim berish uchun kam vaqt qoladi. Yangi berilgan bilimni va uyga vazifa yoki mustaqil topshiriq berishni qoidali qilib amalga oshirishni aytmay qo`ya qolaylik. Shuning uchun keyingi vaqtida , pedagogi amaliyotda bir turdag'i faoliyat blan shug`ullanuvchi darslar paydo bo`la boshladi . Bularga yangi bilimlarni egallash darslari; yangi ko`nikmalarni hosil qilish darslari ; bilim va ko`nikmalarni tekshirish hamda xatolarni tuzatish darslar; bilim va ko`nikmalarni amaliyotda sinab ko`rish darslari. Bu dars turlari shunday nomlangani bilan, dars ichidagi aralash darslarning to`rt unsurining biri uzaytirilib, qolganlari qisqartirilgan bo`ladi. Masalan, darslarga ajratilgan 45 daqiqani, yangi bilimlarni egallash dars turida, darsni tashkil qilish va o'tgan darsdagi mavzuni takrorlash qismiga 2-3 daqiqa beriladi. Bu vaqtida o'qituvchi

o`tgan darsni takrorlamay, qisqacha eslatib o`tadi xolos. Quyida bu turdag'i darslarning ichki tuzilishini ko`rib chiqamiz.

Yangi bilimni egallash darsi yoki *u tushuntirish darsi* ham deb yuritiladi.

Bu turdag'i dars qisimlarining taxminiy joylashuvi quyidagicha:

1. Ilgari o`tilgan bilimlarni eslash;
2. Yangi bilimlar berish;
3. Yangi bilimning o`zlashtirilganligini tekshirish;
4. Nazariyani qo`llash namunasini ko`rsatish;
5. Uyga vazifa berib, darsni yakunlash.

Egallagan bilim va ko`nikmalarni mustahkamlash darsi, quyidagi elementlerni o`z ichiga oladi:

1. Nazariy bilimlarni eslash;
2. Egallagan bilimlar bo`yicha mashqlar qilib, ko`nikma hosil qilish;
3. Darsni yakunlash;
4. Uyga vazifa berish.

Takrorlash darsi. Egallagan bilimlarni mustahkamlash bilan takrorlash darslari orasida ancha umumiylig mavjud. Bu umumiylig, eng avvalo mazkur darslarning vazifalari va darsning ichki tuzilishiga ta`luqlidir. Shu bulan birga bu darslarning orasida takrorlanayotgan avvalgi darslarda material to`liq berilmagan, ba`zi joylari takrorlanadi.

Bilgan narsasini ha deb takrorlay vermaydi. Takrorlash darslarida avvallari bilmay qolgan joylari takrorlanadi.

Egallagan bilimlarni umumlashtirish va bilim hamda ko`nikmalarini takomillashtirish darsi:

Bu darsning elementlari quyidagicha:

1. Umumlashtiruvchi bilimga doir bilimlarni eslash;
2. Bilimlarni umumlashtirish va ular orasidagi funksional aloqadorlikni ko`rsatish;
3. Nazariy bilimlarning o`zlashtirilganligini tekshirish;
4. Bilimlarni qanday qilib umumlashtirilgan qoidasi bilan tanishtirish ;

5. Mavzu bo`yicha egallagan bilimlarga hosil qilgan ko`nikmalarni takomillashtirib, malaka darajasiga yetkazish;
6. Drsning natijalarini yakunlash;
7. Uyga vazifa berish.

Egallagan bilim va ko`nikmalarni tekshirish (nazorat) darsi. Nazorat ishi o`tkaziladigan darsning tuzilishi murakkab emas. O`qituvchi topshiriqlarni e`lon qiladi, o`quvchi talabalar ularni bajaradilar va dars oxirida ishlar yig`ib olinadi. Nazorat ishining savollari va topshiriqlari shunday ifodalanishi kerakki, o`quvchi-talabalarning javoblarida ular bilimlarni shunchaki eslab qolgani emas, balki ishning mohiyatini tushungani ham ko`rinib turishi lozim.

Yuqorida keltirilgan ilmiy-nazariy ma'lumotlarni o'rganib tahlil qilganimizdan keyin maktablarda 4-sinf o'qish darslarida nostandart dars shakllaridan foydalanish holatini o'rganishni asosiy maqsad qilib qo'ydik. Va bunga doir ma'lumotlar 2.3-paragrafda o'z aksini topgan.

I-bob bo`yicha xulosa

II-BOB. 4-SINF O'QISH DARSLARIDA NOSTANDART DARS

SHAKLLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

2.1. Nostandart dars shakllari va ularning turlari

Ta'lrim jarayonining tarixiy-tadrijiy rivojlanishi bosqichlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'qitishning maqsad va vazifalari, o'qitish metodlari va usullari, o'qitish vositalari, o'qitish shakllariga nisbatan qarashlar, yondashuvlar xilma-xildir.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lrim to'g'risida"gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi mustaqillik yillarida milliy ta'lim tizimini, ta'lim mazmunini, ta'lim maqsadini hamda ta'lim natijalarini belgilab berdi. Yangilangan ta'lim mazmuniga binoan o'qitish jarayonini tashkil etishda pedagogik qonuniyatlar va tamoyillariga qat'iy rioya qilish, zamonaviy interfaol ta'lim metodlari hamda axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish, o'qitishni tashkil etishning eng samarali usullaridan foydalanish lozimligini hamda mazkur jarayonda o'qituvchi mas'uliyati va vazifalarini yanada oshirishni belgilab berdi.

Yuqorida aytilgan talablar zamonaviy darslarda o'z aksini topishi lozim. So'ngi pedagogik adabiyotlarda zamonaviy dars tushunchasi deganda o'quvchilar tomonidan o'quv materiallarining to'liq o'zlashtirilishi, ularni tarbiyalash hamda rivojlantirish jarayoni deb tushuniladi. Zamonaviy darslarda o'quv-tarbiyaviy jarayonning hamma komponentlari joylashgan bo'ladi. Uning maqsadi, mazmuni, vosita va metodlarining boshqaruvi didaktik elementlarni o'z ichiga oladi.

Zamonaviy darsning mohiyati va vazifalari shundan iboratki, o'qituvchi-o'quvchilar o'zaro yakka va jamoa bo'lib, bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatadi. O'zaro ta'sir etish orqali o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalari shakllanadi, qobiliyati o'sib boradi, o'zaro faoliyatda tajribalari ortadi. O'zaro muloqot ko'nikmalarida o'qituvchining pedagogik mahorati shakllanadi. Dars bir tomonidan o'quv jarayonini harakatga keltirsa, ikkinchi tomonidan o'qituvchining faoliyat qonuniyatlarini ochib beradi.

Har qanday darsni shakllantirishda uning pirovard maqsadi – o'qituvchining zamonaviy dars orqali nimaga erishmoqchiligi belgilab olinadi. Shundan so'ng zamonaviy darsni olib borishdagi vositalar belgilanadi. So'ng navbat bilan maqsadga erishishda to'g'ri yo'l tanlanib, ish tutiladi.

Zamonaviy darsning maqsadi deganda nimani tushunish kerak? O'qituvchi qanday maqsadlar qo'yadi? Fanda maqsad shuki – u oldindan faoliyatdan ko'zda tutilgan natija, olinadigan bilim, ko'nikma, malaka, ya'ni Davlat ta'lim standarti talablariga erishishdir.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida, zamonaviy darsning maqsadi – o'zining aniqligi, unga erishish yo'llari va ma'lum didaktik vazifalar asosida amalga oshiriladi.

Zamonaviy darsning didaktik vazifalari o'quv maqsadlarini ro'yobga chiqarish orqali amalga oshiriladi. Ya'ni, o'quvchilarning aniq masala va mashqlarni tuzishi, uni tahlil etishi, matnni o'qishi, konspekt, tezislar tuzishi orqali o'quv jarayoni kechadi. Shundan kelib chiqib, aytishimiz mumkinki, boshlang'ich sinf o'qish darslari o'quvchilarda to'g'ri talaffuz qilish, badiiy asarni tahlil qilish, tushunish, 1-2 sinflar qisqa hajmda insholar yoza bilishi, 3-4 sinf o'quvchilari mustaqil mushohada yuritish orqali kamida 10 ta so'zdan iborat insholarni yozish ko'nikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi.

Zamonaviy dars tuzilishiga qaysi elementlar kiradi, qaysilari kirmaydi. Pedagogik adabiyotlarda bu masala bo'yicha yagona fikr shakllanmagan. Ayrim dars ayrim elementlariga ko'p hollarda amaliyotda uchrovchi holatlarni, ya'ni yangi materiallarni o'rganish, o'tilganlarni mustahkamlash, baholash va nazorat olib borish, uy vazifalari, umumashtirish va tizimga tushurishni kiritadilar.

Zamonaviy darsga – o'rganiladigan material mazmuni, o'qitiladigan fan va uning metodlari, dars boshqaruvi, o'quv faoliyati nazorati, o'quv-texnika vositalari, mustaqil ishlash uchun didaktik materiallar, o'quvchilarning o'quv faoliyatini tashkil etish shakllari, o'qituvchi shaxsi va boshqalar kiradi.

Shundan o'quvchilarning o'quv faoliyatini tashkil etish masalasiga alohida to'xtalib o'tamiz. Ta'lim jarayonining dinamik o'sishi natijasida o'quvchilarning o'quv faoliyatini tashkil etishning yangicha ko'rinishlari vujudga kela boshladi. Bular nostandard yoki noan'anaviy darslardir.

XX asr 70-yillari o'rtalarida, maktablar tizimida o'quvchilarning mashg'ulotlarga qiziqishlarining pasayish xavfi aniqlandi. Muammoni bartaraf etish maqsadida bir guruh olimlar tadqiqot ishlarini olib borishdi. Bunda nostandard darslarning tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratildi. Nostandard dars an'anaviy tuzilishdagi improvizatsion o'quv mashg'ulotidir.

Pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish nostandard darslarning o'nlab turlari mavjudligini ko'rsatdi. Ular orasida «berilish» darsi, amaliy o'yinlar, matbuot konferensiyalari, ijodiy hisobotlar. musobaqalar, KVN turidagi o'yinlar, tanlov, teatrlashtirilgan darslar, binar, kompyuterli darslar, fantaziyalar, «sudlar», haqiqatni izlash, «paradokslar», auksionlar, dialoglar va boshqalar ko'zga tashlanadi.

1. *Illyustrativ va tushuntirish darslari*. Bunday darslarda o'quv jarayoni asosan ko'rgazmali metodlar asosida olib boriladi. Bu darslarda asosan o'quvchilarning eshitish va esda saqlab qolish qobiliyatlariga tayaniladi. O'quvchilarning eshitgan va esda saqlaganligi asosida bexato javob berishlari dars samaradorligini belgilaydi

Bunday darslar an'anaviy darslar hisoblanadi. Bu kabi darslardan uzoq vaqt dan buyon foydalanilb kelinmoqda. Uni o'zini oqlagan dars turlari deb qabul qilingan va bunday darslar yangi mazmun, yangi ko'rgazmali qurollar bilan modifikatsiya qilib kelinmoqda. Ko'rgazmali va tushuntirish darslari boshqa tur darslariga qaraganda bir qator afzalliklarga ega. Bu turdag'i darslar vaqt ni tejash, o'qituvchi-o'quvchilarning kuchini saqlash va dars jarayonini samarali boshqarish imkonini beradi.

Shu bilan birga bu darslarning o'ziga yarasha kamchiliklari ham mavjud. Mazkur shakldagi darslarda o'quv materiallari tayyor holda beriladi,

o'quvchilarning mustaqil ishlashi, fikrlashi tashkil etilmaydi. O'zlashtirish jarayonida shaxsga individual yondashilmaydi

2. *Muammoli darslar.* O'z xarakteriga ko'ra muammoli vaziyatni vujudga keltirib, uning yechimini yakka yoki guruhlar ishtirokida hal etishga qaratiladi. Bu kabi darslar bilimlarni mustaqil ravishda o'zlashtirishga qaratilib, unda o'quvchilarning fikr yuritishi, qiziqishlariga suyaniladi. O'quv jarayoni texnologiyasi variativlik, ketma-ketlik, kompleks yondashuvlar bilan hal etiladi. Muammoni yechish jarayonida qiyinchiliklar ham kelib chiqadi. O'quv materiali muammoning qo'yilishi o'quvchilarning tayyorgarligiga, yoshiga mos bo'lishi va ular yecha oladigan masalalar bo'lishi kerak. Darsning birinchi bosqichida muammoning mohiyati, yechimining zarurligini tushunib yetishlariga erishish muhim.

Darsning ikkinchi bosqichi muammoni ochish yo'lidir, uni mohiyatga yetish orqali hal etiladi.

Darsning so'nggi bosqichida yechim asosida o'quvchilar "men buni o'zlashtirib, yechimini o'rganib oldim" degan xulosaga kelishi kerak. Muammoli dars o'quvchilarning ijodiy-mustaqlil harakati orqali o'z yechimini topadi. O'quv jarayoniga qiziqish ortadi. O'qituvchining assosiy e'tibori muammoni qo'ya olish, yechimi ustida fikr yuritish, o'quvchilarning xulosa chiqara bilishini shakllantirishdan iborat.

3. *Dasturlangan dars* asosan maxsus dars asosida kompyuter yordamida amalga oshiriladi. Dasturlangan darslar oldindan tuzilgan loyihalar asosida amalga oshiriladi. U o'quv jarayoni boshqaruvini qulaylashtiradi. Bunday turdag'i darslarda pirovard natijalar oldindan rejalahtiriladi. Dasturlangan darsning qulayligi shundaki, unda o'quvchilarning o'qitish materiallarini o'zlashtirib olayotganligini doimiy, ketma-ket kuzatib, nazorat etib boeirshga imkon yaraladi. Natijada, uning qiziqish, intilishlari so'nmaydi, o'quvchilarda bilimga bo'lgan intilish saqlanib qoladi.

Loyihalashtirilgan darslarning o'ziga xos tomonlari va afzallikkulari quyidagilardan iborat:

1. O'quv materiallari alohida bo'laklarga bo'linadi.
 2. O'quv jarayoni ketma-ketliklarga bo'linadi, o'quv materiali ma'lum bo'laklarda fikrlab o'zlashtirishga moslashtiriladi.
 3. O'zlashtiruvchining har bir harakati nazoratda bo'ladi.
 4. O'quvchilar vazifani bajarishi bilan o'zlashtirish uchun navbatdagi vazifani oladi va qunt bilan o'zlashtiradi.
 5. O'quvchilar noto'g'ri javob qilsa, unga darhol yordam ko'rsatiladi.
 6. Darsda har bir o'quvchi mustaqil ishlaydi, materialni o'z imkoniyati darajasida o'zlashtiradi.
 7. O'qituvchi o'quv jarayonining tashkilotchisi, yordamchi, maslahatchisiga aylanadi va o'quvchilar bilan yakka ishlash imkoniyatiga ega bo'ladi.
4. *Kompyuterli o'qitish darslari* – o'quv jarayoni yangi zamonaviy, yuqori darajadagi yutuqlarga suyangan holda didkatikaning so'nggi ta'limgan texnologiyalari asosida tashkil etiladigan darsdir. Bunday darslar o'quv materiallarini tez, soz o'zlashtirish imkonini beradi.
- Agar kompyuter maxsus dasturlar bilan ta'min etilsa, o'quv jarayoni samarali kechadi. O'quv jarayonini olib borish, nazorat etish, natijalarini korreksiya qilish, boshqarish, kerakli ma'lumotlarni to'plab boorish oson kechadi.
- Kompyuter yordamida ta'limgan mazmunini algoritmlash, ya'ni mazmunni o'rGANISH, ketma-ketliklarni ishlab, pirovard maqsadga erishish yo'llarini ko'rsatish imkonini tug'iladi.
- Kompyuter yordamidagi darslarning sifat ko'rsatkichi ikkita asosiy omil (faktor) bilan aniqlanadi:
- O'quv dasturlarining sifati;
 - Kompyuter texnikasi sifati va uning imkoniyatlari.

Bu kabi darslarni sifatli qilib tashkil etish murakkab jarayon, ammo istiqbollidir.

5. Nostandart darslar

Hozirgi kunga kelib pedagogic faoliyatda ***nostandart darslar*** va ulardan foydalanish haqida tez-tez fikr yuritilmoqda. Nostandart darslarning bosh

g'oyasi o'quvchilarning o'quv-biluv jarayoniga, o'quv mehnatiga qiziqish, xohish, istaklarini ko'zlash orqali o'quv jarayonini tashkil etishdir.

Nostandard dars sahnalashtirilgan dars mashg'ulotlari bo'lib, uning tizimlari ham turli ko'rinishda bo'lishi mumkin. Nostandard darslarga qarashlar ham turlicha, ayrimlar uni o'quv jarayonini demokratlashtirish, erkinlashtirish deb ta'kidlasalar, ayrimlar pedagogic printsiplarga rioya qilinmagan holat deb qaraydilar.

Pedagogic adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, bunday zamonaviy dars turlari juda xilma-xil. Bu kabi zamonaviy darslarni maqsadlari, vazifalari, o'tish metodikalariga ko'ra quyidagicha nomlash mumkin:

1. "G'arq bo'lism" darslari.
2. Ishchanlik darslari.
3. Matbuot-konferensiya darslari.
4. Musobaqa darslar.
5. KVN tipidagi darslar.
6. Teatrlashtirilgan darslar.
7. Maslahatxona darslari.
8. Kompyuterli darslar.
9. Kichik guruhli darslar.
10. O'zaro bir-birini o'qitish darslari.
11. Ijodkorlik darslari.
12. Auktsion darslar.
13. O'quvchilar tomonidan tashkil qilinadigan darslar.
14. Hisobot darslari.
15. Shubhali darslar.
16. Ijodiy hisobot darslari.
17. Formulali darslar.
18. Ko'rik-tanlov darslari.
19. Binarli darslar.
20. Yakunlashtiruvchi darslar.

21. O'yinga asoslangan darslar.
22. "Sud" darslari.
23. "Haqiqatni izlab" darslari.
24. Ma'ruzali darslar.
25. Konsert darslari.
26. Dialogli darslar.
27. "Rolli o'yinlar" darslari.
28. "Konferensiya" darslari.
29. Seminar darslar.
30. Integrallashgan darslar.
31. Ekskursiya dasrlari.
32. Innovatsion darslar.
33. Zakovat darslari va boshqalar.
34. Texnika vositalari yordamida dars o'tish.
35. Ilmiy –fantastik kitoblar ustida ishlash.
36. O`ylab top (evrika).
37. O`yinchoqlar yordamida dars o'tish.
38. Darsda kasbga yo`naltirish.
39. Eksperimental dars o'tish.
40. Bahs-munozara darsi.
41. Har xil yozma ishlar.

Nostandard darslar tashkiliy usullari, o'tkazish metodlariga ko'ra o'quvchilar ehtiyojiga mos tushadi. Chunki bunday darslar qat'iy reglamentli darslardan ko'ra o'quvchilar ruhiyatiga yaqinroq bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchilar nostandard darslardan o'z o'rniда foydalansalar foydadan holi bo'lmaydi. Quyida bir qancha nostandard dars shakllarining mazmuniga to'xtalib o'tamiz.

1.Konferentsiya darsi. O`quvchilarning ijodiy ishlashga ko`mak beruvchi usullardan biri, maktablarda konferentsiya darsini tashkil etish va o`tkazishdir. Konferentsiya darsi quyidagi yo`nalishda bo`ladi:

1. a) an'anaviy shaklda konferentsiya darsi;
2. b) maxsus mavzuni ilmiy jihatdan o'rganish;
3. v) kasbga qiziqtirish darsi.

Konferentsiya darsi o`quvchilarning kitob ustida mustaqil ishslashga, olam yangiliklari bilan tanishtirish va o`quvchilarning bilish faoliyatini kengaytirishga katta yordam beradi. Konferentsiya darsining muvaffaqiyatli o'tishi uning sifatiga, tayyorgarlik darajasiga bog`liq. Bunday tayyorgarlikka quyidagi bosqichlar kiradi:

- konferentsiya darsining vazifalari va unda muhokama qilinadigan savollar doirasini aniqlash;
- o`qituvchining tegishli adabiyotlarni o`rganishi;
- o`quvchilar o`rtasida ma'ruzani to`g`ri taqsimlash;
- o`quvchilar uchun qo`shimcha moslamalar berish;

Konferentsiya darsining mavzusi shunday tanlanishi kerakki, u birinchidan qiziqarli, ikkinchidan, uni atroflicha va chuqur o`rganishga erishish, uchinchidan, mavzuning texnika va xalq xo`jaligidagi ahamiyati yoritib berilishi lozim.

2. Seminar darsi. O`quvchilarda mustaqil bilim olish va kitob ustida ishslash ko`nikmasini hosil qilishda seminar darsi yaxshi natija beradi. Seminar darsi hozirgi zamon talabiga javob beradigan dars turlaridan biri bo`lib, o`quvchilarni mustaqillikka o`rgatadi, qo`shimcha adabiyotlar, jurnallar, ommabop kitoblar, ma'lumotnomalar (spravochnik)lardan foydalanishga odatlantiradi. O`quvchi o`rgangan materiallarini xulosalash, texnika va turmushga bog`lash, muammoli savollarni to`g`ri hal qilishda ijodiy yondashishga harakat qiladi. Seminar darsining maqsadi o`quvchilarni adabiyotlardan, qo`llanmalardan mustaqil konsept olishga, o`quv predmetini chuqurroq o`rganish, egallagan bilimlarini umumlashtirishga o`rgatishdan iborat.

3. Texnika vositalari yordamida dars o`tish. O`qituvchiga dars berishda yordam beruvchi asosiy qurol darslik, unga yozilgan metodik qo`llanma, savol va masalalar hamda mashqlar to`plami, didaktik materiallar va hokazolar.

Shular qatoridan yaxshi o`rin olgan texnika vositalardir. Ya`ni kino apparatlari, video, kodoskop va boshqalar. Ko`z bilan ko`rib, quloq bilan eshitishga yordam beradigan bunday asboblar o`quvchilarning bilim olish samaradorligini oshiradi.

4. Ilmiy-fantastik adabiyotlar ustida ishlash. Mazkur mavzu o`quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini oshirish va kitob ustida mustaqil ishlash ko`nikmalarini hosil qiladi. Ilmiy-fantastik kitob ustida ishlash o`quvchilarning bilim doirasini kengaytirishga yordam beradi.

5. O`ylab top (evrika) darsi. O`quvchilarning topqirlik darajasini aniqlash uchun o`ylab top o`yini o`ynaladi. Bu o`yinni fizika, matematika, ximiya va boshqa fanlarda ham o`tkazish mumkin. Matematika darsida quyidagi o`ylab top o`yini mavjud: Bu o`yin 2, 10, 14-sonlar qaytarilmagan holda xohlagan sonlar qo`yilib, 30 raqam hosil qilish. Quyida har tomonlama 30 sonini chiqarish usuli ko`rsatiladi. Bu diagonalda ham 30 raqami chiqadi.

6. O`yinchoqlar yordamida dars o`tish. Interfaollikni oshirishda ba`zi mexanik, elektr va elektron o`yinchoqlar muhim rol o`ynaydi. Bolalarning atrof-muhitni o`rganishida katta yordam beradi. Ayniqsa, matematika, fizika, rus tili, xorijiy tillar va mehnat darslarida tayyor yoki o`quvchilarining o`zlari yasagan o`yinchoqlarni namoyish qilishlari ularning bilim olish jarayonini tezlatadi va texnika fanlariga bo`lgan qiziqishlarini oshiradi.

7. Darsda kasbga yo`naltirish. Mavzuni o`quvchilar qiziqqan kasblarga bog`lab o`tish bolaning o`sha kasbga bo`lgan qiziqishini orttiradi. Bunda o`quvchi darsni diqqat bilan tinglaydi. O`zi ham keyingi darsda qiziqqan kasbi bo`yicha biron narsa aytib bershga intiladi. Turmushda va texnikada ko`rgan amaliy ishni kasbiga bog`lashga urinadi. Natijada o`quvchida fanga, kasbga bo`lgan qiziqish ortib boradi.

8. Ekserimental darslarini o`tishi. O`quv jarayonini jonlashtirish hamda o`quvchilarning fizika, kimyo, biologiya darslarida mustaqil ish olib borishini ta'minlashda tajribaviy dars o`tish metodi yaxshi natija berishi bilan birga ularning texnik ijodkorligini oshirishga yordam beradi. O`quvchilar amallarning asosiy jarayonlarini o`z ko`zilari bilan ko`radilar. Hosil bo`lgan natjalarni

mustaqil tahlil qilib, tegishli xulosa chiqaradilar. Fizika, kimyo va biologiya fanlaridan o`tkazilgan laboratoriya ishlari o`quvchilarga hodisalarini chuqurroq tekshirishga va o`rganishga, uning zamonaviy asboblar, o`lchash natijalariga matematik ishlov berish metodlari bilan tanishishga, ijodiy izlanish ko`nikmalari olishga imkon beradi. Eksperimental dars o`tishdan maqsad nazariy bilimni mustahkamlash va chuqurlashtirish hamda asboblar bilan amaliy ishslash, olingen natijalarini hisoblash, ularni tadbiq qilish ko`nikmalarini oshirishdir.

9. Bahs-munozara darsi. Mazkur usulda o`quvchilarga bir kun oldin mavzu beriladi. O`quvchilar mavzuni o`qib, savollarga javob topib, guruhlarda o`sha savollarga javoblar bahs-munozara asosida olib boriladi. Yoki biror masala sinf taxtasida ishlanadi va uning II, III variantlari bor bo`lsa bahs-munozara tarzida ishlanadi. Bunda o`quvchilarning faolligi oshadi, o`zini erkin tutadi.

10. Har xil yozma ishlari. O`quvchilarning bilim darajasi, tafakkuri yuzasidan har xil yozma ish olinadi. Yozma ishlari 5-10, 10-15, 15-20 va hokazo, ya'ni 45 minut davom etadi. Ba'zida ijodiy yozma ishlari olinib, o`quvchining ijod qilish faoliyati o`rganiladi.

11. Integrativ (fanlararo bog`lanish) darslar. Hozirgi zamon tabiiy fanlar ichida fizika, kimo, biologiya, matematika, geografiya fanlari qisman bir-biriga bog`langan, ya'ni integratsiyalangan. Bu darslar o`quvchi tafakkurini rivojlantiradi, solishtirish, turli faktlarni tahlil qilish, xulosa va yakunlar chiqarish kabi fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga, mustaqil faoliyatlarida esa muammolarni hal qilishga ijodiy yondoshishga yordam beradi.

Bundan tashqari, bu hol o`quvchilarning ko`pgina tushuncha ta'riflarini yodlay olishlarinigina taqozo qilmay, balki tushunchalar tizimini o`zlashtirishni talab qiladi.

XX asrning so'nggi yillaridan boshlab barcha fan sohalarida innovatsion yondashuv g'oyalari ilgari surdi. Innovatsiya-lotincha so'z bo`lib, “yangilik kiritaman, tatbiq etaman, o`zgartiraman” degan ma'noni bildiradi.

Innovatsion yondashuv o`qitish jarayonini tashkil etish shakllarida ham o'z aksini topib, u quyidagi usullardan iborat.

- Modellashtirish (trenirovka).
- Namoyish qilish
- Kichik guruhlarda bo`lish.
- Aqliy hujum
- Tanqidiy tafakkur
- Debatlar
- Nuqtai nazaring bo`lsin
- Har kim har kimga o`rgatadi
- Rolli o`yinlar
- Muayan holatni (vaziyatni) o`rganish
- Modifikatsiyalangan ma'ruza
- O`yinlar
- Bingo
- Axborot texnologiyalari (komputer) yordamida.

O`qitishning innovatsion usullaridan foydalana bilish va amalga oshirishda o`qituvchi quyidagilarni bilishi lozim:

- innovatsion texnologiya tushunchasi, uning mazmun-mohiyati;
- ta'lif maqsadini amalga oshirishda innovatsion texnologiyalarning o`rni va roli;
- fanlar bo`yicha innovatsion texnologiyalarni qo`llash prinsiplari;
- ta'limiy va ishchanlik o`yinlari;
- muammoli rivojlantiruvchi ta'lif metodlari;
- o`quvchilarning mustaqil faoliyatlarini tashkil qilish va ta'minlash yo`llari;
- o`quvchilarning mustaqil ishlash mahoratini oshirish usullari;
- ko`rgazmali o`qitish usullari;
- imitatsiya o`quv-mashg`ulotlari;
- ta'lif-tarbiyani faollashtiruvchi usullar.

Innovatsion usul turlari:

1. Modellashtirish (trenirovka-mashq qilish). O`qitishning bu usuli real hayotni qayta tiklash uchun ishlab chiqilgan moslama, asbob yoki vaziyatni o`z ichiga oladi. *Qo'llanilishi:*

- turli vaziyatlarda kerak bo`ladigan ko`nikmalar hosil qilishda;
- oddiy, murakkab mexanik va elektr asboblar yasashda, operativ ko`nikmalar va qaror qabul qilishni amalga oshirishda;
- xavfli va kechiktirib bo`lmaydigan vaziyatda boshqarish ko`nikmalarini mustahkamlashda;
- real hayotiy vaziyatlarda ilgari o`rganilgan prinsiplarni qo`llashda.

Afzalligi:

- o`quvchilar faolligini ta'minlaydi;
- eslab qolishni kuchaytiradi.

2. *Namoyish qilish.* Demonstratsiya-“ko`rsataman, isbotlayman” degan ma'noni anglatadi. Bu usulda o`qituvchi topshiriqni bajarish tartibini o`quvchilarga ko`rsatadi. Shundan so`ng o`quvchilarga topshiriqni mustaqil bajarish imkoniyati berilishi kerak. *Qo'llanilishi:*

- topshiriqni bajarilish tartibini ko`rsatishda;
- muammolarni hal qilish va analistik mohirlikka o`rgatishda;
- texnika xavfsizligini o`rgatishda;
- texnik vositalar va asboblar bilan ishlashni o`rgatishda.

Afzalligi: - o`quvchi o`z ko`zi bilan ko`ra olishi;

- tushunish va eslab qolishga yordam bera olishi;
- qiziqishni oshirishi;
- o`qitishning juda faol shakli ekanligi.

3. *Rolli o`yinlar.* O`quvchilar bu usulda “real hayot” holatlarini qayta jonlantiradilar. Ularga amaliy ish faoliyatlarida qo`llash mumkin bo`lgan yangi turdag'i faoliyatlarni sinab ko`rish va tekshirish imkonini beradi.

Qo'llanilishi:

- yangi turdag'i faoliyatni sinash imkonini ko`rsatadi;
- o`quvchilarni nazariy amaliyotda qo`llashga o`rgatishda;

- o`quvchilar faolligini oshirishda.

Afzalligi: -“real hayot”ning qayta tiklanishi;

- o`quvchilarni mavzuga chuqurroq jalg qilinishi;

- o`quvchilarga muammoga boshqacha yondoshuv imkonini berishi.

4. *Guruh munozarasi.* O`qitishning mazkur usuli o`quvchilarning o`zaro muloqot va fikr almashuviga asoslangan. Bunda guruhda tahlil qilish, baholash va tekshirish asosida muayan mavzu yoki savollar ishlab chiqiladi.

Qo'llanilishi:

- qiziqishni kuchaytirish va o`ylash, fikr yuritishga chorlashda;

- ma'ruza, o`qish va boshqa usullarni mustahkamlashda;

- mashg`ulot mazmunining asosiy qismini ishlab chiqishda;

- muammoning ko`zda tutilgan qarorini ishlab chiqishda;

- yakun yasash yoki tekshirishni amalga oshirishda;

- mavzu tushunarligini baholashda;

- o`quvchilarni kelgusi darsga taylorlashda.

Afzalligi:

- o`quvchilarda qiziqishni orttiradi va darsga jalg qilinishni kuchaytiradi;

- o`quvchilar fikr va tajriba almashish imkoniyatigi ega bo`ladilar.

5. *Muayan holatni (vaziyatni) o`rganish.* Bu o`qitish usuli real hayotdagи vaziyatni batafsil muhokama qilishdan iborat. U usul kichik guruhlarda o`tkazilib, o`qish, o`rganish, tahlil qilish, muhokama va erkin fikr almashish hamda qaror qabul qilish va bu qarorni boshqalarga yetkazishni taqoza qiladi.

Qo'llanilishi:

- dars mazmunini har tomonlama o`ylab so`zlashga o`rgatishda;

- muammoni hal qilish qobiliyati, tanqidiy fikrlash va fikr yuritishni shakllantirishda;

- boshqaruv tamoyillarini namoyon qilishda.

Afzalligi:

- o`quvchilarning faolligi va jalg qilinishini mustahkamlaydi;

- ta'lim olish tugagandan so`ng taqozo qilinadigan ijroni modellashtirishga yordam beradi;
- o`qitishni kuzatish mumkinligi.

6. Tanqidiy tafakkur. Tanqidiy tafakkur uslubi o`qituvchi qo`ygan masala yoki muammoga o`quvchi o`z fikrini bayon qilish, o`zgalar fikrini tanqidiy qayta idrok etish, o`z nuqtai nazarini asoslab berish va saqlab qolish orqali yechish yoki hal etish imkoniyatiga ega bo`lishiga asoslangandir.

Qo'llanilishi:

- o`quvchi o`z nuqtai nazarini shakllantirishga yo`naltirilgan holatlarda;
- o`quvchiga o`z nuqtai nazari, fikrini ishlab chiqish uchun imkoniyat va fursat berilishida;
- o`qituvchi o`quvchilar bilan birgalikda turli nuqtai nazariyalarni muhokama qilish jarayonida.

Afzalligi:

- o`quvchi o`z fikrini asoslay olishi;
- ta'lim oluvchilarga erkin so`zlash imkoniyati yaratilishi;
- barcha fikrlar erkin tahlil qilinishi.

7. Aqliy hujum. Aqliy hujum o`qituvchi qo`ygan savol yoki muammo yuzasidan har bir o`quvchi o`z fikrini bayon etishga imkon beruvchi o`quv uslubidir. Uslub mohiyati «Bir kalla yaxshi, yigirma beshtasi undan yaxshi» prinsipi bo`yicha o`qituvchi tomonidan belgilangan muammo yoki savol yuzasidan ehtimol tutiladigan hamma fikrlar variantini bir yerga jamlay olishda bo`lib, istisno tariqasida ta'lim oluvchilarning barcha fikrlari, jumladan, aytarli to`g`ri bo`limganlari ham inobatga olinadi. Bayon etilgan fikrlar keyingi tahlilda o`quvchilarning qo`yilgan savol yoki muammoni to`g`ri tushunishlariga imkon beradi.

Qo'llanilishi:

- savol, topshiriq yoki muammoni hal qilishda fikrlarni erkin aytishda;
- muammoni hal qilish qobiliyatini oshirishda;
- o`quvchilarning faolligini oshirishda;

-fanga kirish va asosiy mavzu mazmunini bilib olishda.

Afzalligi:

- aytilgan fikrlar tanqid va muhokama qilinmasligi yoki baholanmasligi;
- o`quvchilarni mazmunning ilmiyligiga chukurroq jalb qilinishi;
- belgilangan vaqt doirasida barcha xohlovchilarga o`z fikrlarini bayon etish imkoniyatining berilishi.

8. *Har kim har kimga o`rgatadi.* «Har kim har kimga o`rgatadi» uslubi o`quvchilarni o`rgatuvchiga aylanishi, ma'lum bilimlarni o`zlashtirgach, o`rtoqlari bilan baham ko`rish imkonini beruvchi o`qitish uslubidir. Ushbu uslubning maqsadi o`quvchilarga o`qitish jarayonida zarur bo`lgan axborot maksimumini berish, ayni paytda o`quvchida axborot olish va berishga qiziqish uyg`otishdir. Shuningdek, axborot hajmini olgan o`quvchi ma'lum vaqt davomida uni iloji boricha ko`proq o`rtoqlariga yetkazadi.

Qo'llanilishi:

- o`quvchilarda axborot olish va berishga qiziqishni uyg`otishi;
- axborotni diqqat bilan eshitish va eslab qolishni ta'minlashi;
- sherigining axborotini tinglab, boshqa sherik axtarish uchun.

Afzalligi:

- o`z fikrini lo`nda bayon etishi;
- tinglash va eslab qolish darajasini rivojlantirishi;
- fanga yoki mavzuga bo`lgan qiziqishini uyg`otishi.

9. *Debatlar (tortishuvlar).* Debatlar o`z nuqtai nazarini asoslashda sinfdagi barcha o`quvchilarning (yoki asosiy qismining) bahslashuvda faol ishtirok etishini ta'minlovchi o`qitish uslubidir. Bu uslubdan foydalanish tanqidiy tafakkurni rivojlantiradi. O`quvchi o`z nuqtai nazarini rad etishi kerak. Bahs haqiqatni yuzaga keltirgani bois o`qituvchi sinfni ikki guruuhga bo`lgan holda munozarani atayin avj oldiradi (guruhlarga bir-biriga zid nuqtai nazarlarni aytadi, bahsli topshiriqlar beradi). Bu usul yozma holda olib borilsa, yozma debatlar bo`ladi.

Qo'llanilishi:

- bahsda o`quvchilarning faol ishtiroki ta'minlanganda;
- muammoni hal qilishda mohirlikka o`rgatishda;
- fikrni aniq va qisqa ifodalashga imkon berilganda.;

Afzalligi:

- o`quvchilarni bahslashishga o`rgatishi;
- munozara madaniyatini shakllantirishi;
- asoslab berish malakasini oshirishi

Mazkur bobda keltirilgan nostandard dars shakllaridan foydalanishda boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan yuqori darajadagi pedagogik mahorat talab qilinadi. Avvalo, o'qituvchi o'qish darslarini tashkil etish tartibi va metodikasidan xabardor bo'lishi lozim.

2.2. Nostandard dars shakllari asosida o'qish darslarini tashkil qilish va ularning tahlili

Umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinflarda o'qish fani o'quvchilarni ongli, to'g'ri va ifodali o'qishga o'rgatish bilan birga ularda kitobxonlik va nutq madaniyatini hamda mustaqil fikrlash qobiliyati shakllantiradi. O'quvchilarni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinflarida o'qish fanini o'qitishning asosiy maqsadi:

- milliy hamda jahon adabiyotining nodir namunalarini o'qitish orqali o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy dunyosi, adabiy-estetik didini shakllantirish hamda ularda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurga oid bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilish va rivojlantirish;
- o'quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirish, asarlarni o'rgatish jarayonida olam va inson tabiatni, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali o'quvchilarning ma'naviyatini, dunyoqarashini kengaytirib, mustahkamlab borishdan iborat.

O'qish (1-4-sinf) fanini o'qitishning asosiy vazifasi:

- o'quvchilarning og'zaki nutqi adabiy til me'yorlari asosida shakllanishi va rivojlanishini ta'minlash, nutqiy kompetentsiyani o'stirish;
- yozma nutqda yuksak savodxonlik, adabiy til me'yorlariga rioya etish, uslubiy rang-baranglikdan foydalana olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish hamda dastlab tanish, keyin notanish matn ifodali o'qitilib, o'quvchidagi ko'nikma, malaka aniqlanadi. SHuningdek, miqdoriy ko'rsatkich – o'qish tezligi, ongli va ravon o'qish, bir daqiqada nechta so'z o'qiy olishi ham belgilanadi.

Bolaning matn mazmunini to'liq o'qib olishi, qayta hikoyalashi, shuningdek, o'zgalar nutqini eshitib, tushunib olishi maqsad qilinadi.

Mazkur dasturdan o'rinni olgan vatan mavzusidagi asarlar o'quvchilarni mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy hayoti va xalqimizning bunyodkorlik yo'lidagi olib borayotgan ishlari bilan tanishtirishga yordam beradi.

1-sinfning o'quv yili oxirida bolalar Vatan va uning tabiatini, insoniy qadriyatlarini haqida kichik-kichik asarlarni o'qiydilar.

2-sinfda shakl va mazmun jihatdan uncha murakkab bo'limgan Vatan, ona tabiat, istiqlol, kishilarning hayoti va mehnati, axloqiy munosabatlar haqidagi asarlar bilan tanishadilar.

3- va 4-sinflar o'qish dasturida mavzular ko'lami ancha kengayadi.

Bu sinflarda o'qish darslarining kattagina qismi asarni o'qish va matn ustida ishlashga qaratiladi.

Darsda o'quvchilarning faolligini oshiradigan, tasavvurlarini boyitadigan usullardan foydalanish, asarlarni janr mazmunidan kelib chiqib, rollarga bo'lib o'qish, qahramonlar nomidan qayta hikoya qilish, qahramonning taqdiri haqidagi hikoyani davom ettirish, qiziqarlimavzularda og'zaki hikoya tuzdirish kabi ijobiy topshiriqlardan foydalanish kabi ishlar amalga oshiriladi.

Sinfdan tashqari o'qish o'qish darslari bilan bog'lab olib boriladi. Sinfdan tashqari o'qish mazmuniga ko'ra ta'limning har bir bosqichida ikki asosiy bo'limga ajratiladi:

Birinchi bosqichda o'qish doirasi, ya'ni o'qitiladigan kitoblar va ularni qaysi tartibda o'qish bilan tanishtirish yuzasidan o'quvchilarga ko'rsatma beriladi.

Ikkinci bosqichda shu o'quv materiallar asosida bilim, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi. O'quvchilar kitob va ularning mualliflari haqidagi bilimlarni bevosita amaliy faoliyatlarini, ya'ni kitob ustida ishslash jarayonida egallaydilar. O'quvchilar o'qituvchi rahbarligi ostida avval mavzuga oid bir necha kitob bilan tanishsa, keyinroq bolalar yozuvchilarning asarlari bilan tanishadilar, so'ngra bolalarning qiziqishlariga mos, ruhiyatlariga yaqin har xil mualliflarning bir mavzuga doir kitoblarini mustaqil tanlab olishga o'tadilar.

O'quvchilar milliy va jahon adabiyotlarini o'qib, tahlil qilish asosida e兹gulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, go'zallik va xunuklik haqidagi xilma-xil talqinlarga duch kelishadi. Ularga ongli munosabat bildirish hamda o'zlaridagi axloqiy-ma'naviy fazilatlarning shakllanishi va rivojlanishiga zamin yaratadi. Mutolaa o'quvchilarning og'zaki hamda yozma nutqlari rivojlanadi. Bolaning

matn mazmunini to'liq o'qib olishi qayta hikoyalashi, shuningdek, o'zgalar nutqini eshitib, tushunib olishi malakalari hosil qilinadi. Bunda albatta, o'qituvchi shaxsi va o'quv jarayonini tashkil etishning samarali shakllarini tanlab olish bilan bog'liq.

4-sinf o'qish darslarini nosatandart dars shakllaridan foydalanib tashkil etishni afzalliklari.

*O`qitish mazmunini yaxshi o`zlashtirishga olib keladi.

*O`z vaqtida o`quvchi-o`qituvchi – o`quvchilar o`rtasida samimiy aloqalar o`rnataladi.

*O`qitish shakllari ta`lim jarayonida turli xil ko`rinishlarda kechadi.(yakka, juft, guruh , katta guruhlar).

*O`quv jarayoni o`quv ehtiyojini qondirish bilan yuqori motivatsiyaga ega bo`ladi.

*O`zaro axborot berish, olish, qayta ishslash orqali o`quv materiali yaxshi esda qoladi.

*O`zaro muloqotga kirishish, fikr bildirish, fikr almashish ko`nikmalari shakllanadi.

*O`quv jarayonida-o`quvchining o`z-o`ziga baho berishi, o`z-o`zini nazorat qilishi, tanqidiy qarashi rivojlanadi.

* O`quvchi uchun dars qiziqarli o`qitilayotgan predmet mazmuniga aylanadi.O`qish jarayoniga ijodiy yondashuv, ijobiy fikr namoyon bo`ladi.

*Har bir o`quvchining o`zi mustaqil fikr yuritishga, izlanishga, mushohada qilishga olib keladi.

Shuningdek, o'qituvchi nostandart dars shakllaridan foydalanishda, quyidagi didaktik qoidalarga rioya qilinishi so'raladi.

O`quvchilarni noqulay vaziyatga qo`ymaslik uchun savollarni qanday berish zarur:

1. Savolni avval butun sinfga bering;
2. O`quvchilarga savolni o`ylab olish uchun fursat bering;

3. Agar kimdir javob berish istagini bildirsa, uni rag`batlantiring, davom ettirish yoki qo`shimcha qilishni so`rang;
4. Agar yetarlicha vaqt o`tsada, sinf jim o`tirsa, o`quvchilarning sizga uzatayotgan noverbal belgilari (nigoh yo`nalishi, tananing oldinga engashishi)ga e'tibor bering va biror kishiga shaxsan murojaat qiling;
5. Agar hech qanday belgilar sezilmasa, savolni sharhлаshingizga ehtiyoj bor – yo`qligini sinfdan so`rang;
6. Yaxshi javob berilgani uchun maqtashni oshirib yubormang.

Kommunikatsiya samarali bo`lishi, turli to`sıqlar mazmunga zarar yetkazmasligi uchun qayta bog`lanishdan foydalanishni unutmang.

Qayta bog`lanish nima? Inson hayoti davomida doim o`zgalar bilan muloqotga kirishib, atrofdagilarning o`ziga nisbatan munosabatiga tayanib yashaydi. O`z navbatida, o`zi ham atrofdagilar haqida fikr yuritadi, ularning hatti- harakatlarini baholaydi. Ko`pchilik o`zgalarning fikrini o`ta muhim hisoblaydi, bu fikrlarni inobatga olish zarur deb biladi.

Munosabat ifodalashning o`z tartib-qoidalari mavjud bo`lib, bu jarayon qayta bog`lanish deb yuritiladi. Qayta bog`lanish – bizning xulqimiz va harakatlarimizning boshqa kishilarga o`zimiz sezmagan holda ta'sir ko`rsatishi haqida ma'lumotdir. Bir kishi yoki butun bir guruh o`zining boshqa kishilarning harakatlariga nisbatan reaksiyasini ularga kamchiliklarini tuzatishda yordam berish maqsadida ifoda etish qayta bog`lanishga olib keladi.

Qayta bog`lanish hamda harakatni talqin qilishni o`zaro farqlash lozim. Xususiy talqinda, masalan, quyidagicha fikr bildiriladi: “Sen, menimcha, ni qilyapsan”; qayta bog`lanishda esa “Sen ...ni qilganingda, men ...ni his qilyapman”. Talqin harakatni talqin qiluvchining qabul qilish xususiyatlariga bog`liq bo`lishi mumkin. Qayta bog`lanish esa bir kishining boshqa bir kishi harakatlariga nisbatan reaksiyasini ifoda etadi.

Darsni baholash maqsadida qo`llanadigan qayta bog`lanishning bir necha usullari mavjud. Ko`pincha dars oxirida o`qituvchi xulosa chiqarish, uygaga vazifa berish bilan kifoyalananadi. Ayrim hollarda “Dars sizga yoqdimi?” deb so`rashi

mumkin. Quyida qayta bo`glanishning ba`zi bir usullarini namuna sifatida keltiramiz.

Debriefing- inglizcha so`zdan olingan bo`lib, “jamlash”, “saralash” degan ma’nolarni anglatib, o’quvchilardan barcha ma’lumotlarni siqib so`rab olguncha bo`lgan jarayon, savol- javob orqali kerakli axborotni olish usuli. Aynan debriefing jarayonida bajarilgan ishlarning mohiyati aniqlashtiriladi, maqsadga erishganlik darajasi tahlil qilinadi, xulosa qilinadi, o`quvchilar bilib olganlari va yana o`rganishlari lozim bo`lgan material orasidagi munosabat o`rnataladi, keyingi harakatlar rejasi belgilanadi.

Debriefing bosqichlari:

- 1) bosqich: faktlarni aniqlash(Nima sodir bo`ldi?)
- 2) bosqich : sabablar tahlili (Nega shunday bo`ldi?)
- 3) bosqich: harakatlarni rejalashtirish (Endi nima qilamiz?)

Birinchi bosqichda sodir bo`lgan voqealar qayd etiladi, hosil bo`lgan his – tuyg`ular oshkor etiladi, nima sodir bo`lishi mumkinligi to`g`risida emas, haqiqatdan amalga oshgan voqea haqida fikr yuritiladi.

Ikkinci bosqichda voqeani keltirib chiqargan sabablar tahlil qilinadi, muqobil nazariyalar muhokama etiladi, misollar keltiriladi.

Uchinchi bosqichda keyingi qadamlar aniqlashtiriladi.

Gamburger usuli. Qayta bog`lanishning samarali usullaridan biri. Dars yakunida o`quvchi uchun foydali ma’lumot olishga yordam beradi. Eslatib o`tamiz: hamburger (inglizcha so`z, o`zbek tilida muqobili yo`q, hozir turkcha kabobga o`xshaydi)- ichiga cho`g`da pishgan, qovurilgan go`sht qo`yilgan non. Mazali bo`lishi uchun salat bargi, sabzi salati, mayonez, ketchup solinadi. “Gamburger” usulini qo’llaganda o`qituvchi so`zini quyidagicha boshlashi mumkin: -Hurmatli o`quvchilar, ko`pchiligidan gamburger nima ekanligini bilamiz, uni sevib iste’mol qilamiz. Ayting-chi, uning kaloriya jihatidan qimmatli qismini nima tashkil etadi? (go`sht). Siz uchun dars davomida nima qimmatli bo`ldi?

Barcha o`quvchilar o`z fikrlarini bildiradilar. Keyin o`qituvchi davom etadi:

-Gamburgerning mazasini nima buzdi?

-Gamburgeringizga nimalar yetishmayapti?

Fikrlar umumlashtiriladi, o'qituvchi ham hamma qatori o'z fikrini bildiradi.

Qiyoфalar usuli. Har bir ishtirokchi uchta (xursand, neytral, xafa) qiyofa chizilgan kartochka oladi va unda o`zining, guruhning ishtirokini hamda dars mazmunini baholaydi. Doskaga konvert ilib qo`yiladi. Ishtirokchilar baholash varaqalarini shu konvert ichiga soladilar.

Fikrlash uchun oltita shlyapa usuli. Amalda undan har qanday ijodiy jarayonni tartibga solish, mantiqni emotsiyadan ajratib, yangi betakror g`oyalar yaratish uchun foydalanish mumkin.

Bunda o`qituvchi 6 xil rangdagi kichik qog`ozlardan ishtirokchilar soniga mos ravishda shlyapalar yasaydi. Bu shlyapalar dars boshlanishida kichik guruhlarga bo`lish uchun qo`llanishi mumkin. Mashg`ulot yakunida har bir guruhga o`z rangidagi boshga kiyish mumkin bo`lgan qog`oz shlyapalar taqdim etiladi va muhokama olib boriladi.

Oq shlyapa: raqam va faktlar. Axborot. Savollar. Sodir bo`lgan voqeа – hodisalar, guruh ishini holis qayd (bayon) etish. Qanday axborotga egamiz? Yana qanday axborot zarur?

Qizil shlyapa: emotsiyalar, kuchi intuitsiya, his- tuyg`ular. Hislarni asoslash talab etilmaydi. Ta`lim jarayonida o`quvchilarda qanday hislar tug`ildi?

Qora shlyapa: ehtiyyotkorlik. Jarayondagi salbiy holatlar. Kamchiliklar nimalardan iborat? Qanday xatolarga yo`l qo`yildi?

Sariq shlyapa: afzalliklar. Jarayonda qanday yutuqlarga erishildi. Ijobiy xulosalar chiqarish. Nima uchun bunday qilish ma`qul? Afzalliklari qanday? Nima uchun bu amalga oshadi?

Zangori shlyapa: ijodkorlik. Turli g`oyalar. Yangi g`oyalar. Takliflar. Yechimning turli variantlari. Qanday muqobilari mavjud? Jarayonni takomillashtirish yo`llari.

Ko`k shlyapa: tahlil, mulohaza. Mulohaza haqida mulohaza. Qaror qabul qilish. Nimaga erishdik? Keyin nima qilish kerak?

4-sinf “O’qish” fani .

Mashg‘ulotning texnologik modeli

Mavzu	“Do’stlik” hikoyasi. (X.To’xtaboyev)
Mashg‘ulot shakli	Kichik guruuhlar asosidagi seminar-dars
Maqsad	<p>Ta’limiy: O’quvchilarga insoniy fazilatlar haqida ma’lumot berish, yaxshilik, vafodorlik, do’stlik, mehnatsevarlik va vatanparvarlik xislatlarini tahlil qilish, insonlar hayotida tutgan o’rni va amaliy ahamiyati haqida ma’lumotlar berish.</p> <p>Tarbiyaviy: Bolalarni guruh-guruh bo‘lib ishlashga o‘rgatish, ularda kasbiy qiziqishni hosil qilish, ma’naviy-axloqiy tarbiya berish.</p> <p>Rivojlantiruvchi: kitob ustida ishlash, fikrlarini mustaqil bildira olish ko’nikmalarini rivojlantirish.</p>
O’quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	<p>Metod:, Blis savol-javob, kitob ustida ishlash, toifalash jadvali, og‘zaki bayon qilish.</p> <p>Shakl: Aralash - nostandart (O’quvchilar bilan savol- javob o‘tkazish, guruhlarda ishlash, rollar taqsimoti).</p> <p>Vosita (jixozlar): Darslik, tarqatma materiallar: matnlar, A-4 format qog‘oz, Rangli flamastir, skoch va boshqalar.</p> <p>Nazorat: deprifing nazorat usuli, og‘zaki nazorat, savol-javoblar, o‘z-o‘zini nazorat qilish va baholash.</p> <p>Baholash: Rag‘batlantirish, 5 balli tizim asosida</p>

Kutiladigan natijalar

O‘qituvchi	O‘quvchi
Mavzuni qisqa vaqt ichida barcha o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishiga erishadi. O‘quvchilar faolligini oshiradi. O‘quvchilarda darsga nisbatan qiziqish uyg‘otadi. Bir vaqtning o‘zida ko‘pchilik O‘quvchilarni baholay oladi. O‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishadi	Yangi bilimlarni egallaydi. Yakka holda va guruh bo‘lib ishlashni o‘rganadi. Nutq rivojlanadi va eslab qolish qobiliyati kuchayadi. O‘z-o‘zini nazorat qilishni o‘rganadi. Qiska vaqt ichida ko‘p ma’lumotga ega bo‘ladi

Kelgusi rejalar (tahlil, o‘zgarishlar)

Ilg‘or pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish va tadbiq etish, takomillashtirish. O‘z ustida ishlash. Mavzuni hayotiy voqealar bilan boyitish, bog‘lash. Pedagogik mahoratni oshirish	Matn bilan mustaqil ishlashni o‘rganish. O‘z fikrini ravon bayon qila olish. Shu mavzu asosida ko‘sishma materiallar topish, ularni o‘rganish. O‘z fikri va guruh fikrini tahlil
-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

	qilib bir echimga kelish malakasini hosil qilish.
--	---------------------------------------------------

1. DARSNING TASHKILIY QISMI:

- Salomlashish
- Davomatni aniqlash
- Sinf xonasi va o‘vuvchilarning darsga tayyorligini tekshirish

2. DARS NOAN’ANAVIY BO‘LGANLIGI UCHUN DARS HAQIDA TUSHUNTIRISH:

Darsning oltin qoidalari:

- Yangilik;
- Izlanish;
- Vaqtga rioya qilish;
- Hamkorlikda ishslash;
- Rag‘bat;
- Faollik;
- Do‘stona munosabat;

DARSNING BORISH

1-bosqich. Da’vat bosqichi. Dastlab o’qituvchi sinfdan o’ziga bitta yordamchi o’quvchini tanlab oladi. Tanlangan olingan o’quvchi darsning boshidan oxirigacha o’qituvchiga yordamlashadi. Sinf o’quvchilari teng ikki guruhga bo’linadi. O’quvchilar guruhlarda ishslash tartibi bilan tanishtiriladi. O‘quvchilarni darsga jalb qilish uchun o’tgan mavzu yuzasidan blits so‘rov metodi o‘tkaziladi.

1-guruh: “Bilimdonlar” guruhi. Guruh sardori: Alimardonov Ilhom

2-guruh: “Zukkolar” guruhi. Guruh sardori: Hamidova Yulduz

1-topshiriq. Blits so‘rov metodi o‘tkazish (5-7 minut): Ushbu usulda o‘quvchilarni harakatlar ketma-ketligini to‘g‘ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o‘rganayotgan predmeti asosida xilma-xil fikrlar, ma’lumotlar

ichidan keraklisini tanlab olishni. Shu bilan bir qatorda, o‘zgalar fikrini hurmat qilish va ularga o‘z fikrini o‘tkaza olish hamda o‘z faoliyati, kunini rejalashtira olishni o‘rgatishga qaratilgan. Berilgan topshiriqlar bo‘yicha o‘quvchilarga mavzu yuzasidan umumiyl savollar beriladi. Har bir guruhning bergen to’g’ri javoblari assissent-o‘quvchi tomonidan qayd qilib boriladi.

Shundan so’ng, ikki guruhga ham toza qog’oz beriladi. Qog’ozga “Qanday insoniy fazilatlarni bilasiz?” degan savolga javoblar yozilishi so’raladi.

- 1.
- 2.
- 3.
- 4.
- 5.

2-bosqich. Anglash bosqichi. Hikoyani o’qing va tahlil qiling.

DO‘STLIK

Xudoyberdi To‘xtaboyev

Abduqodir Vovaga yozayotgan xatini boshidan o‘qib chiqqan edi, o‘ziga yoqmadi: nuqul keraksiz so‘zlarni yozibdi-yu, muhimlari qolib ketibdi. Yangitdan yozmoqchi bo‘lib, «Esingdami, Vova», deb boshladi. Boshladiyu, yana yoza olmay, derazadan olmazorga tikilganicha, xayolidan o‘tgan davr kecha boshladi.

...Bir kuni kosadagi sutni to‘kib qo‘yib oyisidan qochib chiqqan edi. Ko‘chalarda bekor aylanish joniga tegdi. Keyin nima gaplar bo‘layotganini bilish uchun mifik hovlisiga kirgan edi, yangi ko‘chib kelgan rus tili o‘qituvchisining eshigi oldida loy qorib turgan malla sochli bolaga ko‘zi tushib qoldi. Abduqodir yaqinroq borib begona bolaning kurakchasini oldi-da, ura qochdi.

– Kerak bo‘lsa, olaver, – dedi to‘satdan o‘zbekchalab Vova, – menda ko‘p. O‘sha kuni Abduqodir Vova bilan durustgina tanishib oldi. Ma’lum bo‘lishicha, Vovalar «Katta dovon» qishlog‘idan ko‘chib kelayotganlarida ularning yettita quyonlari o‘sha yerda qolib ketibdi. Bitta ona quyonni olib qaytishibdi. Hademay o‘qishlar ham boshlanib ketdi.

Ikkovlari bir sinfda o‘qiy boshladilar. Endi ular birga dars tayyorlashar, birga o‘ynashar, bo‘sh vaqtlarida esa Vovaning quyonlariga o‘t keltirish uchun dalalarga chiqishar edi. Bir kun ikkovlariadir tomonda adashib ham qolishgan. Bu voqeal 4-sinfda o‘qiyotganlarida yuz bergan edi. Ular olma keltirish uchun bog‘ga borishdi.

Erta bahor, daraxtlar kurtak yoza boshlagan, hammayoqda o‘t-o‘lanlar ko‘karib, zilol suvli ariqlar bo‘yida chuchmomalar ochilgan payt... Ishlarini

bitirib, endigina orqaga qaytamiz deb turganlarida, Vovaning yonginasida bir quyon bolasi sakrab, o ‘ynoqlab qoldi:

- *Quyon! – deya qichqirdi Vova va ortidan quvlay boshadi. Abduqodir ham yugurdi. Quyon bolasi o ‘ynoqlab, oyoqlarini osmonga otib yugurar edi. Qorong‘i tushib, ko‘z ko‘rmay qolguncha quyonni quvplashdi. Shu payt yaqinginada chiyabo ‘rining chaqaloqning ingalashiga o ‘xshash ovozi eshitilib, ikkovlarini ham cho ‘chitib yubordi...*
 - *Vova, – dedi Abduqodir o ‘zidagi qo ‘rquvni bosish uchun ataylab qattiq tovushda, – sen katta bo ‘lsang quyonchi bo ‘lmoqchimisan?*
 - *Albatta, – dedi Vova tovushini undan ham baland qilib.*
 - *Men bobomga o ‘xshab bog ‘bon bo ‘lsam kerak, bobom: «Qarib qoldim, o ‘rnimga seni qoldirmoqchiman», – deydilar.*
- ...Bir nafasdan so ‘ng xat ham tayyor bo ‘lgan edi.*
Abduqodir pochta tomon yo ‘l oldi.⁵

Hikoya yuzasidan har bir guruhga quyidagi aniqlovchi savollar beriladi:

1. Abduqodir xatida Vovaga nimalar haqida yozdi?
2. Daftaringizga do‘stlik haqidagi maqollarni yozing.
3. Hikoyada tabiat manzaralari va hodisalariga oid bildirilgan jumlalarni tahlil qiling?
4. Muallif hikoya orqali qanday g’oyani ilgari surmoqda?

3-topshiriq. Dam olish daqiqasi. Erkin mavzu. Bunda o ‘quvchilardan mavzuga oid she’r, hikoya, qo’shiq, ertak, rivoyat aytib berish so’raladi.

4-topshiriq. Savol: “Do‘stlik” hikoyasida qanday kasb turlari tilga olingan? Ular haqida qanday ma’lumotga egasiz? Sizningcha, yana qanday kasb turlari mavjud? Quyidagi jadvalni to’ldirib bering.

Toifalash jadvalini tuzish qoidasi: Toifa-xususiyat va munosabatlarni muhimligini namoyon qiluvchi (umumiy) malumot.

Ajratilgan alomatlar asosida olingan ma’lumotlarni birlashtirishni ta’minlaydi. Tizimli fikrlash, ma’lumotlarni tuzilmaga keltirish, tizimlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

1. Toifalar bo‘yicha ma’lumotlarni taqsimlashning yagona usuli mavjud emas.

⁵

2. Bitta mini-guruhda toifalarga ajratish boshqa guruhda ajratilgan toifalardan farq qilishi mumkin.

3. Ta’lim oluvchilarga oldindan tayyorlab qo‘yilgan toifalarni berish mumkin emas bu ularning mustaqil tanlovi bo‘ladi.

Misol (namuna)

Toifalash jadvali

Kasb turlari		

Kasb turlari haqidagi jadvalni to’ldirgandan so’ng har bir guruh a’zolari o’qib eshittirishadi. Har bir kasbga ta’rif beradi. Bir-birida takrorlanmagan kasb turlarini ajratib ko’rsatadi.

3-bosqich. Tushunish bosqichi. O‘quvchilarning bilimini yanada musahkamlash va qayta aloqani o’rnatish uchun “Debriefing” usuli qo’llaniladi. Bunda quyidagi savollar o’qib eshittiriladi va o’quvchilardan og’zaki javob berishi so’raladi.

1. Bugungi darsimiz qanday o’tdi?
2. Seminar darsimizda nimalarni o’rgandik?
3. Sizningcha, nima uchun odamlar o’rtasida haqiqiy do’stlik qadrlanadi?
4. Bugungi seminar darsimiz sizlarga ma’qul bo’ldimi? Darslarni yana qanday shakllarda tashkil etilishini xohlaysiz?

Savollarga berilayotgan javoblarni assisent-o’quvchi qayd etib boradi

Uyga vazifa. Insoniy fazilatlar haqidagi hikoyalar, ertaklar va rivoyatlar o’qib kelish. “Mangu olov” nomli she’rni yod olish.

2.3. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida nostandard dars shakllaridan foydalanishning natijalari

Ma'lumki, bitiruv malakaviy ishning asosiy maqsadi boshlang'ich sinf o'qish darslarini tashkil etishda nostandard dars shakllaridan foydalanish, uning afzalliklari va kamchiliklarini o'rganishdir. Shu maqsadda kuzatish ishlari orqali tajriba-sinov ishlari olib borildi. Ilmiy-metodik tajribalar orqali chiqarilgan xulosalar, ilgari surilgan g'oyalar, metodik tavsiyalar, ta'lim texnologiyalari ishlab chiqilgan tizimning samaradorligini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinf dars mashg'ulotlarida nostandard dars shakllaridan foydalanish holatini o'rganish uchun ilmiy izlanish usulidan foydalanildi. Bunda umumiyo'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflardan nazorat sinflari va tajriba sinflarida o'qish darslari misolida kuzatildi. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'qituvchilari va o'quvchilari bilan suhbatlar uyushtirildi, anketa-so'rovnomalari asosida o'quv jarayonida nostandard dars shakllaridan foydalanish darajasi o'rganildi.

Tajriba-sinov ishlari Surxondaryo viloyati Qumqo'rg'on tumanining 23-sonli umumiyo'rta ta'lim maktabida tashkil etildi. Tajriba-sinov ishlari davomida jami 18 nafar boshlang'ich sinf o'qituvchilari, 59 nafar 4-sinf o'quvchilari ishtirop etdi.

Tajriba jarayonida suhbat, savol-javob, kuzatish, tajriba, anketa so'rovlari kabi metodlaridan foydalanildi.

Tajriba-sinov ishlarining aniqlovchi bosqichida quyidagi anketa-savolnomalari bilan o'qituvchilarga murojaat qildik. So'rovnoma keltirilgan savollarga har bir o'qituvchidan yozma ravishda javob berishi so'raldi.

Anketa-savolnomalari

- 1. Dars mashg'ulotlarini tashkil etishning qanday shakllari mavjud?**
- 2. Dars mashg'ulotlarini tashkil etishning qanday zamonaviy shakllarini bilasiz?**

3. Darslarni tashkil etishning nostandart dars shakllari haqida ma'lumotga egamisiz?

4. O`qish malakalarining sifatlari va ularni takomillashtirish yo'llari haqida ma'lumot bering?

5. Sizningcha, o'quvchilarni qiziqtirish uchun darslarni tashkil etishda nimalarga e'tibor qaratish lozim?

Anketa-so'rovnama natijalari tahlilini quyida keltirib o'tamiz.

So'rovnomada keltirilgan birinchi "*Dars mashg'ulotlarini tashkil etishning qanday shakllari mavjud?*" savoli yuzasidan olingen javoblarda 6 nafari (33.3 %) an'anaviy va aralash dars shakllari borligini, 12 nafari (66.6 %) dars mashg'ulotlarini tashkil etishning individual, guruhli va ommaviy shakli, shuningdek sinf va sinfdan tashqari shakllari mavjudligini aytgan bo'lsa, shulardan 2 nafari (11.1 %) esa qo'shimcha didaktik o'yinlarga asoslangan dars, muammoli dars kabi shakllari ham mavjydligini ta'kidlagan.

So'rovnomadagi ikkinchi "*Dars mashg'ulotlarini tashkil etishning qanday zamonaviy shakllarini bilasiz?*" degan savolga 5 nafar o'qituvchi beshta va undan ko'proq zamonaviy dars shakllarini bilishini aytgan bo'lsa, 8 nafar o'qituvchi esa uchtadan zamonaviy dars shakllarining nomlarini aytgan bo'lib, qolgan o'qituvchilarning javoblari qoniqarsiz baholangan.

"Darslarni tashkil etishning nostandart dars shakllari haqida ma'lumotga egamisiz?" degan savolimizga so'rovnomada ishtirok etgan boshlang'ich sinf o'qituvchilarning barchasi nostandart dars shakllari mavjudligi haqida eshitganligini, lekin o'quv mashg'ulotlarida foydalanmasligini aytishgan.

So'rovnomadagi "*O`qish malakalarining sifatlari va ularni takomillashtirish yo'llari haqida ma'lumot bering?*" degan savolimizga so'rovnomada ishtirok etgan deyarli barcha o'qituvchilar ijobiy javob berishgan.

So'rovnomadagi beshinchi "*Sizningcha, o'quvchilarni qiziqtirish uchun darslarni tashkil etishda nimalarga e'tibor qaratish lozim?*" degan savolga barcha o'qituvchilarning javoblari bir-biriga yaqin bo'lib, ya'ni dars mashg'ulotlarini kichik guruhlar ko'rinishida, didaktik o'yinlar asosida,

kompyuter texnologiyalaridan, ko'plab ko'rgazmali materiallardan foydalangan holda tashkil etish o'quvchilarni fanga nisbatan qiziqishini kuchaytiradi. Besh nafar o'qituvchi javoblariga qo'shimcha sifatida o'quvchilarni fanga qiziqtirishda o'qituvchining o'quvchilar bilan hamkorlikda ishlay olishi va uning boy nutqi asosiy vosita deb ta'kidlagan.

Shundan so'ng, boshlang'ich sinf o'qituvchilariga darslarni tashkil etishning nostandard shakllari, ularning turlari va mazmuni haqida nazariy ma'lumotlar berdik hamda bitiruv malakaviy ishimiz vazifalaridan kelib chiqib 3-4 sinflarda 24 soatlik o'qish darslarini kuzatib o'rgandik. Shuning bilan birgalikda, tajriba-kuzatuv ishlarini olib borishimiz uchun tajriba (4-B sinf 29 nafar o'quvchi) va nazorat sinflarini (4-A sinf 30 nafar o'quvchi) tanlab oldik. O'rganilgan darslarning ko'pchiligidagi an'anaviy dars shakllari va metodlaridan foydalanildi. Shundan so'ng, boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilan birgalikda 4-sinf o'qish darsligidagi mavzularni o'rganib, mazkur mavzularni o'rganish uchun qulay bo'lgan nostandard dars shakllarini ajratib oldik va ulardan dars jarayonida qo'llashga doir ko'rsatmalar ishlab chiqdik.

4-sinf o'qish darslarida nostandard dars shakllaridan foydalanishga doir ishlab chiqilgan ko'rsatmalar asosida 4-B sinf rahbari Nurmatov Chori Muhammadiyevich bilan birgalikda o'quv mashg'ulotlarini olib bordik.

O'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda zamonaviy dars mashg'ulotlariga qo'yiladigan quyidagi talablarga rioya qildik:

- o'quv maqsadlarini aniq va ravon belgilash, dars bosqichlarining ketma-ketligi, jarayonning rivojlantiruvchi ta'lim va tarbiyaviy maqsadlarini ta'min etish;
- dars mazmunini optimal aniqlash, uni o'quv dasturlari, ta'lim standartlari me'yorlariga mosligi, o'quvchilar tayyorgarligining dars jarayoniga mosligi;
- bilimlarni o'zlashtirib olishlarini kafolatlash orqali o'quvchilarni ko'nikma, malakalarni egallab olishga tayyorlash;
- dars mazmuniga mos ravishda ratsional metod, uslub, vositalarni tanlay olish, shu orqali o'quvchilar qiziqishini oshirish, yakka va jamoa tartibda ishlashga muhit yaratish;

- dars jarayonida turli didaktik printsiplardan foydalanish;
- o'quvchilarning muvaffaqiyatli o'qishi uchun sog'lom muhit yaratish.

4-sinf o'qish darslarini nostandard dars shakllari asosida tashkil etishda aralash dars qoidalariga asoslanildi. Chunki, aralash darslarning shu kungacha saqlanib kelishining sabablaridan biri, aralash darsdagi to'rt unsur (element) istagan ketma-ketlikda qo'llanishi mumkin. Shu bilan birga bu turdag'i dars jarayonida didaktikaning deyarli barcha talablariga erishish oson. Shuning uchun ham, didaktik nazariyotchilarning ta'kidlashicha, 80 % darslar shu turda olib borilar ekan. Bu turdag'i darslarning afzalligi, yana shundaki, u dars jarayonida hukm suruvchi didaktik qonuniyatlarga mos keladi. Bu darslarda o'qituvchi va pedagoglar, o'z sharoitlaridan kelib chiqib, ta'lim oluvchilarning qabul qilish imkonii, tayyorgarlik darajasi va boshqa bir qator omillarni hisobga olgan holda, darsga ajratilgan vaqt ni dars ichidagi to'rt unsurga ixtiyoriy ravishda taqsimlay oladilar.

Nostandard dars shakllari asosida o'qish darslarini tashkil etish orqali quyidagi ijobjiy natijalarga erishdik.

1. O'quvchilarda o'qishga nisbatan o'quv-motivatsiyasi oshirildi. Chunki, bilimlarni egallash jarayonida bilishning negizi – motivatsiya hisoblanadi. Motivatsiya – o'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirishga nisbatan bo'lgan qiziqish, xohish va istaklarini qo'zg'atish asosida maqsadga erishishdir.

Darslarda o'quvchilar faolligini oshirish quyidagi motivlar asosida amalga oshirildi:

- o'z fikrini mustaqil bildirish va himoya qilish imkoniyatining yaratilganligi;
- munozara, muhokamada faol ishtirok etish;
- o'qituvchiga va o'quvchilarga savollar qo'llay bilishi;
- tengdoshlari javoblariga tanqidiy qaray olishi;
- mavzuni o'zlashtira olmagan o'quvchilarga yordam berish;
- bo'sh o'zlashtirgan, yaxshi tushunib ololmagan o'quvchilarning bilib olishga yordamning mavjudligi;
- o'ziga topshiriqlarni mustaqil tanlay olishi;

- o'z faoliyatini nazorat eta olishi, keragida amaliy harakatlar qilishi.

Shuningdek, o'quvchilarni darsga qiziqtirishda tajribada qo'llanilgan quyidagi motivlar ham e'tiborga molikdir:

- o'qituvchining o'z ishiga fidoyiligi;
- o'quv materialida yangiliklarning mavjudligi;
- bilimlarni amaliyotga tadbiq etuvchi faktorlarni ko'rsatish, namoyon eta bilish;
- nostandard va yangi yo'nalishli darslarni tashkil etish;
- dars shakllarini yangilab, ommalashtirib boorish;
- muammoli ta'limni tashkil etish;
- evristik darslarni tashkil etish;
- darslarda multimedia tizimidan samarali foydalanish;
- o'zaro bir birini o'qitishni yo'lga qo'yish;
- olgan bilim va ko'nikmalari yuzasidan test sinovlarini tashkil etish;
- o'quvchilar bilimidagi yutuqlarni namoyon etish;
- musobaqalar tashkil etish;
- sinfda va auditoriyada ijobiy-ruhiy holatni yaratish;
- o'quvchilarda o'z-o'zini baholashva ishonchni hosil eta olish;
- pedagogik takt va o'qituvchining mahorati;
- o'quvchilar bilan yaxshi munosabatda bo'lish.

Yuqorida omillar o'quvchilarning o'quv mehnatiga bo'lgan ijobiy munosabatini shakllantiradi va o'z navbatida dars samaradorligini oshirib, o'zlashtirishini kafolatlaydi.

Xulosa qilib aytganda, har bir darsda o'quvchilarning faol ishtiroki darsning samarali kechishiga yordam beradi.

II-bob bo'yicha xulosa

Uzluksiz ta'limning boshqa bosqichlaridan farqli o'laroq, boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'quvchilarning o'qish malakalarini shakllantirish, asar matni ustida ishslash ta'limning didaktik maqsadi hisoblanadi. U turli mavzudagi matnlar ustida ishslash orqali ma'naviy-axloqiy, adabiy - estetik tarbiya bilan chambarchas bog'lab olib boriladi.

Shunga ko'ra o'qish darslarining yetakchi xususiyati o'quvchilarning savodxonligini ta'minlash bilan birga badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirish, milliy mafkura asosida yuksak axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratiladi.

O'qish ta'limi bo'yicha o'quvchilarni faqat matn bilan tanishtirish yordamida dastur talablariga javob berib bo'lmaydi. Negaki matn tagzaminidagi tarbiyaviy g'oya uni tushunish, idrok qilish natijasidagina ochiladi. Boshqacha aytganda, har qanday asardagi sehr-joziba matn zaminidagi yashirin mazmun-mohiyatni anglab yetilganda o'quvchi diqqatini o'ziga jalb etishi mumkin. Bunga adabiy-nazariy tushunchalarni o'zlashtirish, adabiy tahlil malakalarini shakllantirish orqali erishiladi.

Asar tahlili jarayonida o'qituvchi savollariga o'quvchilarning o'z so'zlari bilan javob berishi ham matnda tasvirlangan voqeа - hodisalar yuzasidan mantiqiy fikrlashga, qahramonlarning xatti-harakatlarini to'g'ri baholashga yaqindan yordam beradi. Savollar uzuq-yuluq va mantiqsiz bo'lmasdan, qat'iy maqsad asosida izchil berilishi o'quvchilarning o'qilgan matn mohiyatini chuqur anglab yetishlariga imkon yaratadi. Negaki har qanday javob mustaqillikni taqozo etadi.

O'qish darslari uchun tanlangan mavzular o'quvchilarga kundalik hayot, mustaqillikni mustahkamlash va insoniy munosabatlar bo'yicha ham bilim va tarbiya berishni ko'zda tutadi. Bular ichida istiqlol, vatan, ma'naviyat va tabiat haqidagi mavzular alohida ajralib turadi. Ulardan ko'zlangan maqsad o'zlikni anglash, istiqlol, vatan va tabiat bilan bog'liq tuyg'ularini uyg'otishdir.

Umumiy xulosa va tavsiyalar

O'qish darslari oldiga qo'yiladigan didaktik vazifalar quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilarda yaxshi o'qish sifatlari: to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish.
2. chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish.
3. O'quvchilarning atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va boyitish hamda ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish.
4. O'quvchilarni axloqiy, estetik jihatdan yetuk va mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash.
5. O'quvchilarning bog'lanishli nutqini va adabiy estetik tafakkurini o'stirish.
6. O'quvchilarning xayolot olamini boyitish.
7. Adabiy tasavvur elementlarini shakllantirish.

Shuni unutmaslik kerakki, har bir ta'limiy vazifani bajarishning aniq va ilmiy metodik usullari mavjud bo'lib, ular zamonaviy o'qitish usullari bilan boyitib borilmoqda. Bu vazifalar boshqalari bilan o'zaro bog'liq holda va sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari jarayonida hal qilinadi.

Yuqorida bildirilgan xulosalardan kelib chiqib, quyidagi tavsiyalarini berib o'tamiz. Boshlang'ich sinflarda maktab ta'limining yetakchi predmetlaridan bo`lgan o'qish darslarida olingan bilimlar poydevoriga quriladi.

O'quvchilarni yaxshi o'qish malakalarini o'stirishda eng munosib, eng qulay metod va usullardan, nostandard dars shakllaridan, ilg`or pedagogik texnologiyalardan o`z o`rnida va maqsadga muvofiq foydalanilsa o'qish-o'qitish ishida samarali natijalarga erishiladi. O'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi ijodiy faoliyati mavzularning o`zlashtirilishini osonlashtiradi.

Tajriba-sinov ishining nazariy va amaliy jihatlariga, olib borilgan kuzatish ishlari va ularning natijalariga asoslanib, o`rganish, o`zlashtirish, mulohazalardan kelib chiqqan holda, boshlang'ich sinflarda o'quvchilar yaxshi

o'qish malakalarini shakllantirishga oid bilimlarni o`rganish yuzasidan bir qator tavsiyalarni havola qilishni lozim ko`rdik.

Bular:

1. O'quvchilar yaxshi o'qishga nisbatan qiziqishni o'stirishda mavzularni bir-biri bilan chambarchas bog'liq tarzda o'rgatib borish.
2. O`quvchilarning mavzularni ongli o`zlashtirishlariga, mustaqil fikrflashlariga erishish choralarini topish.
3. Har bir darsga ijodiy yondoshish.
4. Darsda xilma-xil usullardan, interfaol metodlardan, ilg`or pedagogik texnologiyadan keng, o`rinli va maqsadga muvofiq foydalanish.
6. Turli didaktik o`yinlar bilan o`quvchilarni mavzuni o`rganish va o`zlashtirishga qiziqtirish.
8. Metodik yangiliklardan va pedagogik tajribalardan har doim boxabar bo`lib, ularni ta`lim jarayoniga tadbiq qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbskiston Respublikasi "Ta'lif to'g'risida"gi Qonuni / Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: "Sbarq", 1997. - 31-61 b.
2. O'zbskiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" / Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: "Sharq", 1997. - 31-61 b.
3. Karimov I.A. Mamalakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi.-T.: O`zbekiston, 2010.-56 b.
4. Karimov I.A. "Mamalakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish-taraqqiyotimizning muhim omilidir", "Ishonch" gazetasi, 2010 yil 8 dekabr;
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.:2008.
6. Karimov I.A.Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. T.: 1997. 5- jild.
7. Karimov I.A. Barkamol avlod O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: 1998.
8. Boshlang`ich sinflarning takomillashtirilgan davlat ta'lif standarti. Boshlang`ich ta'lif . 2006 , 5- son .
9. Abdullaeva K. Nazarov K. Yo`ldosheva Sh. Savod o'rgatish darslari . T.: O'qituvchi .1996 .
10. Abdullaeva K. va boshqalar . Ona tili . T.: O'qituvchi .1999.
11. Abdullaeva K. va boshqalar. O'qish ktobi . 2- sinf uchun. T.: 2006.
12. Abdullaeva K. va boshqalar. 2- sinfda o'qish darslari , T.: 2004
13. Fuzailov S. , Xudoyberanova M., Ona tili . 3- sinf uchun T.: O'qituvchi .2005.
14. Matchonov S. Shojalilov A. Gulomova X. Sariev Sh. O'qish kitobi. 4- sinf uchun. T.: 2007.
15. Tolipov U.K., Usmonbekova M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari. T.: Fan.. 2006.

16. Yuldashev J.. G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari., T.: O'qituvchi. 2004.
17. Ikromova R. G'ulomova X. Yo'ldosheva Sh. Shodmonqulova D. Ona tili. 4- sinf uchun T.: O'qituvchi . 2007
18. Umarova M. , Hakimova Sh. O'qish kitobi . 3- sinf uchun, T.: 2006 .
19. Umarova M . 3- sinfga o'qish darslari , T.: O'qituvchi. 2004 .
20. Umumiy psixologiya. T.: O'qituvchi. T.: O'qituvchi. 1999.
21. Matchonov S. SHojalilov A. Gulomova X. Sariev Sh. O'qish kitobi. 4- sinf uchun. T.: 2007.
22. Matchonov S. va boshqalar 4- sinfga o'qish darlari , T., 2007.
23. Qosimova K. Fuzailov S. Ne`matova A. Ona tili . 2- sinf uchun T.:Cho`lpon. 2005.
24. Qosimova K. Ne`matova A. 2- sinfda ona tili darslari T.: Cho`lpon. 2004.
25. Tolipov U.K., Usmonbekova M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari. T.: Fan.. 2006.
26. O'qish kitobi . 1-sinf uchun. T. : 2006
27. O'quvchi ma`naviyatini shakllantirish. T.: Sharq. 2000.
28. Xudoyberganova M. Muxtorova M. 3- sinfda ona tili darslari. 3- sinf uchun T.: O'qituvchi .2005.
29. Xudoyberganova M. " Bayonlar to'plami " Toshkent 1995
30. Yuldashev J.. G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari ., T.: O'qituvchi. 2004.
31. G'ulomova X. Yo'ldosheva Sh. Shermatova U. 4- sinfda ona tili darslari. T.: O'qituvchi . 2003

Internet saytlari

www.ziyonet.uz

www.edu.uz

www.tuit.uz

www.pedagog.uz